XALQ MANFAATLARI YO'LIDA XIZMAT QILAMIZ!

Postda
На посту

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2024-yil
25-oktabr
juma

№ **43** (4685)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ ВА ФАХРИЙЛАРИГА

Ҳурматли ички ишлар тизими ходимлари!

Қадрли офицер ва генераллар, сержант ва сафдорлар!

Муҳтарам фахрийлар!

Сиз, азизларни бугунги қутлуғ касб байрамингиз билан чин қалбимдан самимий муборакбод этаман.

Ушбу қувончли айёмда сизларнинг халқимиз осойишталигини таъминлаш, тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш, жиноятчиликка қарши курашиш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасидаги катта хизматларингизни яна бир бор миннатдорлик билан эътироф этамиз.

Ҳозирги кунда **«Барча ислоҳот ва ўзгаришлар – инсон қадрини улуғлаш учун»** деган эзгу тамойил асосида бутун юртимизда фуқароларимиз учун муносиб меҳнат ва яшаш шароитларини яратиш, аҳолининг турмуш фаровонлигини ошириш, мамлакатимизнинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини юксалтиришга қаратилган улкан ишлар амалга оширилмоқда.

Бу борада ички ишлар органлари фаолиятини такомиллаштириш, уларни эл-юрт манфаатлари йўлида хизмат қиладиган халқчил ва профессионал тизимга айлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатларимиз, ҳеч шубҳасиз, муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

(Давоми 2-бетда).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ФАРМОНИ

Ички ишлар органлари ходимлари куни муносабати билан бир гуруҳ ходимларни мукофотлаш тўғрисида

Мамлакатимизда жамоат хавфсизлиги, халқимиз осойишталигини таъминлаш, тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашга қўшган муносиб ҳиссаси, жиноятчиликка қарши курашиш, профилактика ишлари самарадорлигини ошириш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги алоҳида хизматлари, муқаддас қасамёдига содиқ қолиб, шарафли бурчини бажаришда мардлик ва жасорат намунасини кўрсатгани, соҳада профессионал кадрларни тайёрлаш, ёш авлодни Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш йўлидаги ибратли фаолияти учун қуйидагилар мукофотлансин:

«ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХИЗМАТ КЎРСАТГАН ЁШЛАР МУРАББИЙСИ» фахрий унвони билан

Алматов Закиржон – Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

Бу ҳақда сўз юритганда, сўнгги йилларда барча маҳаллаларда хавфсиз, тинч ва осойишта муҳит яратиш, ҳудудларда илғор тажриба ва амалиётларни жорий этиш бўйича муҳим натижалар қўлга киритилаётганини таъкидлаш лозим.

Хусусан, Хива туманининг Истиқлол маҳалласи намуна сифатида белгиланиб, шу асосда 314 та криминоген вазияти оғир маҳаллада рақамлаштириш жараёни тўлиқ амалга оширилди. Ёнма-ён жойлашган, криминоген вазияти мураккаб маҳаллаларни кичик ҳудудларга ажратган ҳолда, уларда янгича иш услублари орқали жамоат тартибини сақлаш бўйича Наманган шаҳар тажрибаси яратилди.

Профилактика, патруль-пост ва пробация хизматлари инспекторларининг фаолиятига замонавий рақамли технологиялар ва техник воситаларни кенг жорий этиш, ходимларнинг билим даражасини ошириш орқали ҳудудларда хавфсиз муҳит яратиш бўйича комплекс чора-тадбирлар ўтказилмоқда. Хусусан, Бухоро вилоятида маҳаллалар жамоат жойларида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш учун кичик ҳажмдаги дронлардан фойдаланиш тажриба тариқасида йўлга қўйилди.

Энг муҳими, биз ёш авлодимизнинг соғлом ҳаёти ва келажагини таъминлаш учун гиёҳвандликнинг олдини олиш, ёшларда бундай воситаларга нисбатан кучли иммунитетни шакллантириш ҳамда уларнинг ноқонуний айланмасига, айниқса, интернет тармоқлари орқали тарқалишига чек қўйишга қаратилган миллий стратегиямизни қабул қилдик ва уни қатъий ижро этишга киришдик.

Ана шундай ислоҳотлар натижасида жиноятчиликни жиловлаш бўйича ёндашувлар тубдан ўзгарди. Ҳуқуқбузарлик содир этиши ёки ундан жабрланиши мумкин бўлган фуқароларни профилактика инспекторлари вақтида аниқлашлари ҳамда мавжуд муаммолар «маҳалла еттилиги» томонидан самарали ҳал этилиши учун ижтимоий профилактика тизими ва унинг ижтимоий-ҳуқуқий механизмлари яратилди. Жиноятчиликка оид тенденцияларни комплекс илмий ёндашувлар асосида аниқлаш, тизимлаштириш ва салбий омилларни бартараф этиш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш мақсадида Ички ишлар вазирлиги тизимида Ўзбекистон Криминология тадқиқот институти иш бошлади.

Қайд этиш лозимки, республикамизда тинчлик ва осойишталикни мустаҳкамлаш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ва уларнинг натижалари халқаро миқёсда ҳам эътироф этилмоқда. Мисол учун, Буюк Британиянинг Иқтисодиёт ва тинчлик институти томонидан ўтган йили эълон қилинган рейтинг кўрсаткичлари бўйича Ўзбекистон жаҳоннинг 121 та мамлакати орасида энг хавфсиз давлат деб тан олинди. Бундай ютуқ бизга мамнуният бағишлаш билан бирга, катта масъулият ҳам юклайди.

Азиз дўстлар!

Тизим ходимларининг касб маҳоратини ошириш, уларнинг ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоясини кучайтириш масаласи ҳам доимо эътиборимиз марказида бўлиб келмоқда. Бу жараёнда, аввало, олис ва чекка ҳудудларда жойлашган ҳамда криминоген вазияти оғир бўлган туман ва маҳаллаларда хизмат қилаётган ходимлар меҳнатига алоҳида аҳамият берилиб, улар учун муносиб хизмат ва турмуш шароитлари яратилмоқда.

Албатта, бугунги шиддатли тараққиёт асрида ички ишлар органларининг кундалик фаолиятини инновацион ёндашувлар, рақамли технологиялар ва илм-фан ютуқларига таянган ҳолда ташкил этиш – мамлакатимизда ҳуқуқ-тартиботни янада мустаҳкамлашнинг муҳим омили эканини сизлар яхши тушунасиз.

Шунинг учун тизимда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳот ва янгиланишларни бундан буён ҳам изчил давом эттирамиз. Жумладан, янги турдаги жиноятлар ҳамда ахборот воситалари ёрдамида содир этилаётган ҳуқуқбузарликларга қарши курашишда таъсирчан механизмларни қўллаш, криминоген вазият бўйича «қизил» тоифада бўлиб келаётган маҳаллаларда илмий ёндашувлар асосида жиноятчиликни жиловлаш юзасидан манзилли иш олиб боришимиз, тергов сифатини ошириш орқали аҳоли ўртасида бу соҳада адолатга бўлган қатъий ишончни шакллантиришимиз лозим.

Мухтасар айтганда, ички ишлар тизимидаги ўзгаришларнинг амалий натижасини халқимиз ўз кундалик ҳаётида доимо сезиши, ҳис этиши шарт.

Ҳурматли соҳа ходимлари!

Фурсатдан фойдаланиб, сиз, азизларга ўз хизмат бурчингиз ва муқаддас қасамёдингизга доимо содиқ қолиб, Ватанимиз ва халқимизга фидокорона хизмат қилиб келаётганингиз учун чин дилдан ташаккур билдираман.

Ҳеч шубҳасиз, сизларнинг машаққатли ва шарафли меҳнатингизни муносиб рағбатлантириш келгусида ҳам давлатимиз ва жамиятимизнинг эътибор марказида бўлади.

Ушбу қутлуғ айёмда эл-юртимиз тинчлиги ва осойишталиги йўлида ҳалок бўлган мард ва жасур соҳа ходимларининг хотирасини ҳурмат ва эҳтиром билан ёд этиб, уларнинг оилалари ва фарзандларига байрам табригимиз ва эзгу тилакларимизни йўллаймиз.

Сизларни Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари ходимлари куни билан яна бир бор самимий қутлаб, барчангизга мустаҳкам соғлиқ, оилаларингизга бахт-саодат, тинчлик ва файзу барака, масъулиятли фаолиятингизда улкан муваффақиятлар тилайман.

Шавкат МИРЗИЁЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти.

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

«МАРДЛИК» ордени билан

Мардонкулов Нодиржон Кодиржонович (марҳум) – Фарғона вилояти Данғара тумани ички ишлар бўлими профилактика катта инспектори

«ДЎСТЛИК» ордени билан

Горбацевич Виктория Александровна – Сирдарё вилояти Сирдарё тумани ички ишлар бошқармаси ҳузуридаги тергов бўлими катта терговчиси

«ЖАСОРАТ» медали билан

Муродов Журабек Мухамадиевич – Самарқанд вилояти Оқдарё тумани ички ишлар бўлими бошлиғининг биринчи ўринбосари

Суяров Шерзод Рахматуллаевич – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ўта муҳим ишлар бўйича тезкор вакили

«СОДИҚ ХИЗМАТЛАРИ УЧУН» медали билан

Аскаров Уктам Бахромович – Бухоро вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг ўринбосари – жамоат хавфсизлиги хизмати бошлиғи

Қодиров Сайидакбар Махаматсодиқович – Андижон вилояти Ички ишлар бошқармаси йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси йўл-патруль хизмати инспектори

Қўшбармоқов Улуғбек Сангирқулович – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Марказий тергов ҳибсхонаси ходими

Мирсадиков Дилмурод Мирхамдамович – Тошкент шаҳар Учтепа тумани бўйича Ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бошқармаси бошлиғи

Муйдинова Гулнора Тошпулатовна – Фарғона вилояти Ички ишлар бошқармаси эксперт-криминалистика бўлими бош эксперти

Сайидов Нодирбек Баҳодирович – Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳар ички ишлар бўлими бошлиғи

Хожиева Мархабо Хикматиллаевна – Навоий вилояти Навоий шаҳар ички ишлар бошқармаси ҳузуридаги тергов бўлими катта терговчиси

Худаяров Низомжон Ражаббаевич – Хоразм вилояти Хонқа тумани ички ишлар бўлими профилактика катта инспектори

«СОҒЛОМ ТУРМУШ» медали билан

Адилова Гулшод Пулатовна – Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси тиббиёт бўлими бош шифокори

«ШУҲРАТ» медали билан

Алибоев Маматали Ҳазратқулович – Сурхондарё вилояти Ички ишлар бошқармаси йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси йўл-патруль хизмати инспектори

Дустов Зафар Абирович – Жиззах вилояти Арнасой тумани ички ишлар бўлими бошлиғининг ўринбосари

Индиаминов Фаррух Нуриддинович – Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳар бўйича Ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бошқармасининг 8-сон ички ишлар бўлими бошлиғи

Казахбаев Малик Пердебаевич – Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги жамоат тартибини сақлаш бошқармаси патруль-пост хизмати инспектори

Кучкаров Турғун Рахимбаевич – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси бошлиғи ўринбосари – ички ишлар органлари фаолиятини услубий таъминлаш маркази бошлиғи

Қосимов Уткирбек Соибжонович – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги бўлим бошлиғи

Ниязов Феруз Жуманазарович – Қашқадарё вилояти Қарши тумани ички ишлар бўлимининг 1-сон ички ишлар бўлинмаси бошлиғи

Хидиров Юсуфжон Илхомжонович – Наманган вилояти транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси бошлиғи

Ўзбекистон Республикаси
Президенти **Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент шаҳри,
2024 йил 23 октябрь

YILNING ENG YAXSHI TERGOVCHILARI







Ichki ishlar organlari tergov bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida «Eng yaxshi tergovchi» va «Eng yaxshi tergov jamoasi» nominatsiyalarining respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda 45 nafar joylardagi g‘olib va sovrindorlar qatnashdi. Ishtirokchilarning jismoniy, kasbiy, jangovar tayyorgarliklarini hamda intellektual va psixologik xususiyatlari sinovdan o‘tkazilib, har biri alohida baholanib borildi. Tanlov yakuni bo‘yicha ishtirokchilar to‘plagan ballar va o‘tkazilgan suhbat natijalari inobatga olinib, tajribali hakamlar tomonidan g‘oliblar aniqlandi.

Vazirlikning majlislar zalida bo‘lib o‘tgan «Eng yaxshi tergovchi» nominatsiyasi bo‘yicha respublika bosqichi sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimida Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari – Tergov departamenti boshlig‘i, polkovnik R.A.Ashropov ishtirok etdi va g‘olib hamda sovrindorlarni qutladi. **«Eng yaxshi jamoa»** nominatsiyasining respublika bosqichida: **3-o‘rin Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi jamoasiga, 2-o‘rin Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov boshqarmasi jamoasiga va faxrli 1-o‘rin Andijon viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi jamoasi**ga nasib qildi. G‘olib jamoalar diplom, monoblok va bir yo‘la to‘lanadigan pul bilan mukofotlandi.

«Eng yaxshi tergovchi» nominatsiyasining respublika final bosqichida: **3-o‘rinni Navoiy viloyati IIB huzuridagi Tergov bo‘limi tergovchisi, katta leytenant Muyassar Fayzullayeva, 2-o‘rinni Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani IIB huzuridagi Tergov bo‘limi tergovchisi, kapitan Rustam Normatov qo‘lga kiritdi. Faxrli 1-o‘rinni egallagan Xorazm viloyati Xiva tumani IIB Huzuridagi Tergov guruhi surishtiruvchisi kapitan Jalolbek Jumaniyazov** ko‘rik-tanlovning mutlaq g‘olibi deb topildi.

G‘oliblar diplom, har oylik pul taminotining 10, 20, 50 foizi miqdorida bir yil davomida to‘lanadigan pul mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, ko‘rik-tanlovdagi faol ishtiroki uchun vazir o‘rinbosarining faxriy yorlig‘i bilan ham bir nechta ishtirokchilar taqdirlandi.

– Men nihoyatda hayajondaman. Faoliyatimiz davomida olgan bilim va tajribalarimizni nufuzli hakamlar oldida namoyish etishning mas’uliyati juda katta ekan. Shunday bo‘lsa-da g‘olib bo‘lganimdan judayam xursandman. Ko‘rik-tanlov esda qolarli bo‘ldi. Bu tanlovdan men ko‘p saboq oldim. Do‘stlarim yanada ko‘paydi. Ayniqsa, O‘zbek milliy drama teatrida namoyish etilgan jadid bobolarimiz hayotini aks ettiruvchi «Cho‘lpon» spektakli menda katta taassurot qoldirdi, – deydi tanlovning «Eng yaxshi tergovchi» nominatsiyasining 3-o‘rin sohibi katta leytenant Muyassar Fayzullayeva.

Abu KENJAYEV,
Ikrom HASANOV,
o‘z muxbirlarimiz.



РЕПОРТАЖ

САДОҚАТЛИ ХИЗМАТ ВА ЮКСАК ИШОНЧ ИФОДАСИ

Тинчлик – энг улуғ неъмат. Бугунги мураккаб ва таҳликали замонда уни асраб-авайлаш ҳар биримиздан огоҳлик ҳамда ҳушёрликни талаб этади. Шу маънода айтиш мумкинки, сўнгги йилларда ички ишлар органлари тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар давомида жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги ёндашувлар тубдан ўзгартирилди. Соҳада амалга оширилган тизимли ислоҳотлар натижасида халқ манфаатларига хизмат қиладиган, замонавий моддий техник воситалар билан таъминланган, юксак билим ҳамда профессионал кўникмаларга эга ватанпарвар кадрларни ўзида жамлаган, энг асосийси, мамлакатимиздаги тинчлик ва осойишталикнинг кафолати бўла оладиган янги тизим яратилди.



25 октябрь – ички ишлар органлари ходимлари ҳаётида алоҳида ўрин тутади. Бу кун мамлакатимизда касб байрами сифатида кенг нишонланиб келмоқда. ИИВ Маданият саройида ушбу санага бағишланган тантанали тадбир бўлиб ўтди. Унда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот котиби Шерзод Асадов иштирок этиб, Президентнинг Ички ишлар органлари ходимлари куни муносабати билан соҳа ходимлари ҳамда фахрийларига йўллаган байрам табригини ўқиб эшиттирди.

Шундан сўнг Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов сўзга чиқиб, барчани касб байрами билан қизғин табриклар экан, ички ишлар органларига берилаётган катта эътибор ва байрам табриги учун Президентимизга барча ходимлар номидан чуқур миннатдорлик изҳор этди. Табрикда тизим фаолиятига юксак баҳо берилиб, катта ишонч билдирилиб, келгуси фаолиятда ҳар бир ходим зиммасига улкан масъулият юкланганини айтиб ўтди. Ҳар бир раҳбар ва ходимнинг кунлик хизмат фаолиятида рақам ва фоизлар ортидан қувиш эмас, балки фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилиш – биринчи галдаги вазифага айланди, дея таъкидлади.



Вазир ўз сўзида давом этар экан, жойларда «маҳалла еттилиги» зиммасига ҳуқуқбузарлик содир этиши ёки ундан жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган шахсларнинг муаммоларини «ижтимоий профилактика» тизими асосида ҳал этиш вазифаси юклатилгани, илк бор юртимизда Жамоат хавфсизлиги концепцияси қабул қилиниб, аҳоли осойишталигини таъминлаш бўйича ягона бошқарув тизими яратилганига урғу берди. Бундан ташқари, сўнгги йилларда тизимда амалга оширилаётган ислоҳотлар давомида Давлатимиз раҳбари томонидан алоҳида эътибор шахсий таркибнинг ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоясини кучайтириш масаласига

ҳам қаратилмоқда. Бу борада, ички ишлар органлари ходимлари ва уларнинг оила аъзоларига малакали тиббий ёрдам кўрсатиш, уй-жой билан таъминлаш, хизмат шароитларини яхшилаш чоралари кўрилмоқда. Бир сўз билан айтганда, ҳалол ва садоқатли хизмат қилиш учун тизимда барча шароитлар яратилмоқда. Бу эса Юртбошимизнинг ички ишлар органларига бўлган ишончи ва юксак ғамхўрлигининг намунаси бўлиб, ҳар бир ходимдан ўз касбига садоқат билан хизмат қилиш, янги билимларни эгаллаш, доимо ташаббускор ҳамда изланувчан бўлишни талаб этади, дея эътироф этди.

вазифаларни бекам-кўст бажаришда барча ички ишлар органлари ходимлари ва ёшларга муваффақият тилаб, байрам билан қутлади.

Байрам тадбирида Ички ишлар вазирининг буйруғи билан бир гуруҳ ходимлар «Аъло хизматлари учун», I, II ва III даражали «Ички ишлар органларида бенуқсон хизматлари учун», «Касб аълочиси» кўкрак нишонлари, «майор» ва «полковник» махсус унвонлари, фахрий ёрлиқ, эсдалик қўл соатлари ва китоблар жамланмаси билан тақдирланди.

Тадбирда қатнашган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар – Ўзбекистон Республикаси Президенти

“ Шундан сўнг Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органлари ходимлари куни муносабати билан бир гуруҳ ходимларни мукофотлаш тўғрисида»ги фармони билан мамлакатимизда жамоат хавфсизлиги, халқимиз осойишталигини таъминлаш, тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашга қўшган муносиб ҳиссаси учун тақдирланган 22 нафар ходимга мукофотлар тантанали равишда топширилди.

Тадбир давомида генерал-лейтенант П. Бобожонов юқоридаги фармонга кўра, «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси» фахрий унвони билан мукофотланган Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматовни яна бир бор унвон билан қутлади.

Ўз навбатида, З.Алматов ҳам бу юксак ишонч учун Президентимизга ўз миннатдорлигини изҳор этар экан, Юртбошимиз томонидан ички ишлар органлари ходимлари олдига қўйилган Давлат хавфсизлик хизмати, Олий суд, Бош прокуратура, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий гвардия ҳамда Давлат божхона қўмитаси масъул раҳбарлари жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда ҳамкорликда олиб борган хизмати ва кўрсатган жонбозлиги учун бир гуруҳ ходимларга мукофотларни топширди.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.
Абу КЕНЖАЕВ
олган суратлар.



СЎЗ МУКОФОТЛАНГАНЛАРГА:

Подполковник Нодирбек САЙИДОВ – Тошкент вилояти Олмалиқ шаҳар Ички ишлар бўлими бошлиғи, «Содиқ хизматлари учун» медали соҳиби:

– Сўнгги йиллардаги туб ислоҳотлар натижасида ички ишлар органлари замонавий техника билан таъминланган, криминоген вазиятни ишончли назорат қила оладиган, халқчил тузилмага айланмоқда. Энг муҳими, соҳа ходимларининг маънавияти, жамиятимиздаги обрў-эътибори юксалиб бораётир. Кўксимга тақилган бу медаль мени янада фидойилик билан хизмат қилишга, тинчлик-осойишталигимизни кўз қорачиғидек асрашга ва элу юртга камарбаста бўлишимизга руҳлантиради!

Подполковник Жўрабек Муродов – Самарқанд вилояти Оқдарё тумани Ички ишлар бўлими бошлиғининг биринчи ўринбосари, «Жасорат» медали соҳиби:

– Ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликка қарши курашиш йўлида олиб бораётган камтарона хизматларим Президентимиз томонидан эътироф этилгани менга янада куч ва масъулият юклайди. Ушбу мукофот нафақат менга, балки жамоадаги ҳамкасбларимга билдирилган ишонч ва юксак эътироф деб биламан. Бу рағбат келгусида янада ғайрат ва шижоат билан хизмат қилишимга замин бўлади, албатта.



21 октября — День праздника узбекского языка

ЗНАНИЕ ЯЗЫКОВ ТОЛЬКО НА ПОЛЬЗУ



Эльвира СУЛТАНОВА, начальник канцелярии Оперативно-розыскного управления Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД Республики Узбекистан, рядовая:

– По национальности – я татарка. Горжусь тем, что помимо своего родного языка в совершенстве владею узбекским и русским языками. В моей профессии знание языков идет мне только на пользу. Узбекский язык, как государственный язык Республики Узбекистан, играет важную роль в делопроизводстве, обеспечивая единообразие, точность и юридическую значимость всех официальных документов.

Знание и правильное использование государственного языка в делопроизводстве способствует укреплению правовой культуры в стране. Каждый сотрудник, ответственный за составление или обработку документов, обязан владеть языком на высоком уровне, чтобы грамотно и корректно выполнять свои обязанности. Это помогает поддерживать высокий стандарт работы и формирует доверие к государственным структурам.

Бахтбек ПУЛАТОВ, начальник отделения следственного отдела при УКД ОВД Мирабадского района, майор:

– Узбекский язык необходим при составлении документов и отчетов. Важно, чтобы все документы были грамотно и четко составлены на государственном языке, так как они являются юридически значимыми,



могут быть использованы в судах и других правовых инстанциях. Это помогает избегать недоразумений, делает работу более прозрачной и понятной для всех участников правового процесса.

По национальности – я казах. Работая в органах внутренних дел, ежедневно взаимодействую с разными слоями общества. Узбекский язык помогает мне эффективно общаться с гражданами, которые обращаются за помощью, будь то в столице или отдаленных регионах страны.



Юлия САЙФУЛИНА, ведущий юрисконсульт Департамента финансового и материально-технического обеспечения МВД Республики Узбекистан, майор:

– Узбекский язык я выучила в период обучения в Академии МВД Республики Узбекистан. Сотрудники органов государственной власти и управления, работающие в нашей стране, должны знать государственный язык в достаточной мере для выполнения своих служебных обязанностей. Владение узбекским языком является обязательным не только на уровне общения, но и при соблюдении правовых норм и международных стандартов. Кроме профессиональных обязанностей, узбекский язык занимает важное место и в моей личной жизни. Он помогает лучше понимать культуру и традиции нашего народа, что, в свою очередь, способствует более глубокому осознанию своей роли как защитника правопорядка.

Молодежь — наше будущее

В НАЧАЛЕ ПУТИ



В студенческие годы психолог группы психологического обеспечения отдела духовно-просветительской работы службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД Наманганской области лейтенант Хасанходжа Фаттоххонов принимал участие в олимпиадах по психологии и уголовно-процессуальному праву, на республиканском этапе которых становился победителем. Окончив в прошлом году Академию МВД и начав служебную деятельность, за короткое время он был трижды награжден почетной грамотой областным управлением внутренних дел.

Лейтенант недавно занял **первое место на областном этапе конкурса «Лучший психолог»,** проводимого среди сотрудников правоохранительных органов. Теперь ему предстоит участвовать в республиканском этапе конкурса. Психолог ежедневно принимает активное участие в разных мероприятиях. Он проверяет психологические знания сотрудников в процессе их тестирования. Кроме того, на пропагандистских мероприятиях старается определить психологическое состояние сотрудников, дает советы и рекомендации тем, кто столкнулся с проблемными ситуациями.

– В рядах сотрудников органов внутренних дел служат волевые люди, способные найти выход из любой ситуации. Борьба с преступностью и раскрытие преступлений по горячим следам требуют кропотливого труда и психологической подготовки. Наша задача заключается в содействии и улучшении духовно-психологического состояния сотрудников, – говорит Хасанходжа.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА, соб. корр.

Наманганская область.

ҚОНУН КУЧИНИ АМАЛДА НАМОЁН ЭТАДИГАН ЭНГ САМАРАЛИ ТИЗИМ

Юрт тинчлиги – мамлакат барқарор тараққиётининг муҳим шарти. Ҳар бир инсон учун Ватан осойишталиги, оилалар хотиржамлиги бебаҳо неъмат, улуғ саодат.

Шу маънода, кейинги йилларда ички ишлар органларини чинакам халқчил тузилмага айлантириш, эл-юрт тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишга устувор аҳамият қаратилиб, аҳоли учун барча шаҳар ва қишлоқларда хавфсиз яшаш ва меҳнат шароитини яратиш мақсадида кенг кўламли ислоҳотлар амалга ошириляпти. Энг қуйи бўғиндаги ҳолат ҳамда муаммоларни чуқур ўрганиб, маҳаллаларни жиноятдан холи ҳудудга айлантириш пировард мақсадимизга айланган.



Айтиш жоизки, Президентимиз Шавкат Мирзиёев давлат раҳбари сифатидаги фаолиятининг илк кунлариданоқ «Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак», деган эзгу ғояни илгари сурган эди. Мамлакатимиз ички ишлар органлари тизимидаги туб ислоҳотлар айнан ана шу халқпарвар ғояга ҳамоҳанг, десак, муболаға эмас.

Ислоҳотларнинг биринчи босқичида ички ишлар органларининг тузилмаси мақбуллаштирилиб, барча бўғин раҳбарларининг халқ депутатлари Кенгашлари ва Олий Мажлис Сенати олдида ҳисобдорлиги белгиланди. Шахсий таркибнинг 85 фоизи қуйи бўғинга туширилиб, аҳолига яқиндан хизмат қиладиган бўлди. Раҳбарларнинг халқ ичига кириб, аҳоли билан бевосита мулоқотга киришиши йўлга қўйилди.

Айниқса, жойларда ички ишлар идоралари бошлиқлари 3-секторга раҳбар этиб белгиланиб, тегишли секторда мавжуд муаммоларни ҳал қилиш асносида аҳолининг дарду ташвишини яқиндан билиб оляпти. Шу аснода улар томонидан ишсизларнинг бандлигини таъминлаш, кам даромадли оилаларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш орқали ҳуқуқбузарликларнинг олди олинмоқда.

Ислоҳотларнинг иккинчи босқичида эса ички ишлар органларининг хизмат фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари белгиланди. Жиноятчиликка қарши курашиш, ижтимоий хавфли жиноятларни фош этиш ва уларнинг олдини олиш борасидаги ёндашув тубдан ўзгартирилди.

Хусусан, ички ишлар органларида криминоген вазиятни таҳлил этиш ва жиноятчилик динамикасини прогноз қилишнинг мутлақо янги механизми яратилди. Вазирлик тизимида йўлга қўйилган Криминология тадқиқот институти бугунги кунда айнан жиноятлар содир этилишининг янги услубларини ва криминоген вазиятни илмий таҳлил қилиш билан шуғулланмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг топшириқлари асосида маҳаллаларда хавфсиз шароитлар яратилмоқда. Бунда ҳар қайси ҳудуднинг ўзига хос хусусиятлари инобатга олиняпти. Эндиликда ҳокимлар ва сектор раҳбарлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини кунлик ташкил этиш одатий ҳолга айланди. Асосий эътибор аҳоли орасида жиноятчиликка нисбатан муросасиз муносабатни ва юрт тақдирига дахлдорлик ҳиссини шакллантиришга қаратилмоқда. Жиноятларнинг сабаблари маҳаллабай ва соҳабай муҳокама қилинаётгани жиноятчиликни жиловлашда яхши самара бермоқда.

Маҳалла ҳудудини интеллектуал видеокузатув тизими орқали назорат қилиш ҳамда хавфсизлик билан боғлиқ хабарларни профилактика инспектори планшетига дарҳол юбориш бўйича Хива туманидаги Истиқлол маҳалласида тажриба яратилган эди. Ушбу тажриба ижобий натижа бергач бутун мамлакатимиз бўйлаб жорий этилмоқда.

Бухоро вилояти ҳудудий ички ишлар органларининг 150 нафар профилактика катта инспектори томонидан учувчисиз учиш аппаратлари (дронлар)дан фойдаланиш амалиёти йўлга қўйилмоқда. Муҳими, дрон ёрдамида ўзига бириктирилган ҳудуддаги вазиятни назорат қилиши учун янги имкониятлар яратилмоқда. Агар ушбу амалиёт яхши самара берса, уни ҳам мамлакатимиз бўйлаб татбиқ этиш режалаштирилган.

Шунингдек, Наманган вилоятида ёнма-ён жойлашган криминоген вазият мураккаб маҳаллаларни микроҳудудларга ажратган ҳолда уларда профилактика бош инспектори ва профилактика кичик инспектори лавозимлари киритилди. Ушбу янгилик ҳам маҳаллаларда аҳоли осойишталигини таъминлаш ва жамоат тартибини сақлашда ўз самарасини беради, деб умид қиламиз. Гулистон шаҳридаги Боғишамол ва Тараққиёт маҳаллаларида синовдан ўтган кўп қаватли уйларнинг кириш-чиқиш жойларини видеоназорат қилиш воситалари билан жиҳозлаш тажрибаси эндиликда бошқа жойларга ҳам татбиқ этиляпти.

Ҳозирда ҳар бир маҳаллага камида биттадан профилактика инспектори масъул. Кечаю кундуз аҳолининг хавфсизлик билан боғлиқ муаммоларини ҳал этиш имкониятига эга бўлиши учун уларга маҳаллаларнинг ўзида 6552 та хизмат уйи берилди. Бундан ташқари, ушбу соҳа вакилларига автомашина харид қилиши учун имтиёзли кредитлар ажратилди.

Яна бир янгилик. Маҳаллаларда «ижтимоий профилактика» тизимига асос солинди. Унга кўра маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш мақсадида профилактика инспектори, маҳалла раиси, ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли ва ёшлар етакчиси ҳуқуқбузарлик содир қилиши ва ҳуқуқбузарликдан жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган шахсларнинг муаммоларини ҳал этиш бўйича манзилли ишларни амалга оширмоқда. Бу борада уларга ижтимоий ходим, солиқ инспектори, бандлик ходими, инспектор-психолог, тиббиёт ходими ва бошқа мутасаддилар яқиндан кўмаклашяпти.

Жамоат хавфсизлигини «инсон омили»ни истисно этган ҳолда таъминлаш масаласи ҳам вазирлик раҳбариятининг доим диққат марказида. Ана шу мақсадда энг олис ҳудудларда ҳам жиноятлар бўйича хабарларни қайд қилишнинг «102» автоматлаштирилган тизими жорий этилди. Маъмурий ҳуқуқбузарликлар ва йўл ҳаракати қоидабузарликлари бўйича баённомаларни электрон тарзда расмийлаштириш амалиёти йўлга қўйилди.

Кўчаларда хавфсизлик ҳолатини кузатиш учун вилоят марказларида 13 та Тезкор бошқарув маркази ҳамда туман-шаҳарларда 130 та Мониторинг маркази ташкил этилиб, уларга 19 мингдан зиёд видеокамералар интеграция қилинди.

Маълумки, ахборот коммуникациялари ривожлангани, ижтимоий тармоқлар оммалашгани сайин, аҳоли орасида кибержиноятлардан жабрланаётганлар сони ҳам тобора кўпаймоқда. Шу боисдан юртдошларимизни огоҳликка чақириш мақсадида виктимологик профилактика тадбирларини кучайтирдик.

Ушбу тадбирлар жараёнида банк пластик карталаридан қандай хавфсиз фойдаланиш кераклиги, кибержиноятчилардан эҳтиёт бўлиш чоралари аҳолига ҳар томонлама тушунтириляпти. Яна рақамларга мурожаат этадиган бўлсак, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, бу борада тезкорликни ошириш учун патруль-пост хизматида автопатруллар сони кўпайтирилиб, ушбу соҳа шахсий таркибининг 37,8 фоизи автопатруль йўналишларига жалб қилинди. Сўнгги пайтларда турли кўнгилсизликларга, ҳатто одамларнинг ҳаётдан кўз юмишига олиб келаётган автоавариялар юз бераётгани кўпчиликни жиддий ташвишга солаётгани аччиқ ҳақиқат. Бундай ҳолатларни олдини олиш учун йўл патруль хизмати ходимлари 4 629 та бодикамера, 1 448 та алкотестер, ҳуқуқбузарликни қайд этувчи 4 365 та планшет ҳамда замонавий патруль автомашиналари билан таъминланди.

Умумтаълим мактабларида «Йўл ҳаракати хавфсизлиги» ўқув синфхоналари, маҳаллалар ва мактабгача таълим ташкилотларида эса йўл ҳаракати қоидаларини тарғиб қилувчи болалар майдончалари ташкил этилди. Шу тариқа болаларда йўлларда ҳаракатланиш маданиятини шакллантиришнинг яхлит тизими яратилди.

Инсон ҳуқуқларини таъминлаш ҳам устувор вазифаларимиздан бири ҳисобланади. Ҳозирда жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумлар билан фақат видеокамера назорати остида мулоқот қилинади. Барча тергов хоналарига видеокамералар ўрнатилган. «Гезелла ойнаси» билан жиҳозланган ва видеоконференцалоқа тизимига уланган 57 та махсус тергов хонаси ташкил этилган.

Бу ҳам тергов ҳаракатлари холисона олиб борилишининг гаровидир. Аммо биз фақат назорат воситалари билангина чекланмаяпмиз. Аввалambор, шахсий таркибни инсонпарварлик, ватанпарварлик, бурчга садоқат, қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялаш чораларини кўряпмиз. Бу борада Маънавият ва маърифат дарслари, турли маданий-маърифий тадбирлар, якка тартибдаги тарбиявий ишлар ўз самарасини бермоқда.

Замон талабларидан келиб чиқиб жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш амалиёти тўлиқ рақамлаштирилди. Тизимда жами 262 та фуқарони қабул қилиш хоналари ташкил этилди. Бугунги кунда ички ишлар органлари ходимлари билан боғлиқ ҳолатларда (1102), қийин вазиятга тушиб қолган хотин-қизларга (1259 ва 1286), туристларга (1173) ва одам савдосидан жабрланган фуқароларга (301-01-01) ҳуқуқий ва тезкор психологик ёрдам кўрсатиш бўйича қисқа рақамли «Ишонч телефони» ишлаб турибди.

Юртбошимиз раҳнамолигида юртимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча соҳасида улкан тарихий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Президентимизнинг тегишли фармони билан тасдиқланган «Ўзбекистон – 2030» стратегиясида халқ хизматидаги адолатли ва замонавий давлатни барпо этиш ғояси алоҳида ўринни эгаллаган. Ана шу ғоядан келиб чиқиб янги Ўзбекистоннинг янги ички ишлар органлари яратилмоқда. Ички ишлар органлари ходимлари «Ватанга ва халққа садоқат билан хизмат қилиш – олий бурчимиз!» эканлигини яхши билишади. Улар ана шу эзгу мақсад йўлида бор куч, билим ва салоҳиятларини аямайди.

Барчамиз яхши биламизки, тинчлик-осойишталикни сақлаш, қонун устуворлигини таъминлаш – мамлакат тараққиёти, иқтисодий-ижтимоий ислоҳотлар самарадорлигининг асосий шартларидан бири. Президентимиз «Агар давлат таянадиган асосий устун қонун бўлса, унинг кучини амалда намоён этадиган энг самарали тизим, бу – ички ишлар соҳаси, десак, айни ҳақиқат бўлади», дея ходимларимизга юксак ишонч билдирди. Вазирлик шахсий таркиби бу ишончдан руҳланиб, бундан буён ҳам мамлакатимизда демократик ислоҳотларни изчил давом эттиришга, халқимизни рози қилишга, тинчлик-барқарорлик ва ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашга муносиб ҳисса қўшиши шубҳасиз.

Пўлат БОБОЖОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазири,
генерал-лейтенант.

(«Халқ сўзи» газетаси, 2024 йил, 23 октябрь).

ЮКСАК МУКОФОТ СОҲИБЛАРИ

ШАРАФГА ШОН БЕРАР УСТОЗ ДЕГАН НОМ

Дунёда касблар кўп. Ҳар бирининг ҳаётда ўз ўрни, нуфузи бор. Лекин улар орасида ички ишлар органлари соҳаси жамият, давлат ҳаётида алоҳида аҳамиятга молик. Зеро, юртимизда тинчлик-барқарорлик, осойишталик, фуқаролар хавфсизлиги таъминланишини ушбу тизим ходимларининг фаолиятисиз тасаввур этиш қийин.



Ҳар қандай мураккаб даврлар, қалтис вазиятларда ҳам ички ишлар органларида ўз жонини аямасдан, жиноятчиликка қарши курашишга шай турган фидойи ходимлар кўпчиликни ташкил этган. Уларнинг бу борадаги машаққатли хизматлари, кўрсатган жасорати ва қаҳрамонлиги ички ишлар органлари тарихининг шонли саҳифалари сифатида бугунги ва келгуси авлод ҳуқуқ-тартибот посбонлари учун ибрат мактаби бўлиб қолади. Улар орасида соҳа вакиллари учун буюк устоз даражасига эришганлари ҳам бор.

Генерал-полковник Зокиржон Алматов ана шундай инсонлардан бири. 1991–2006 йилларда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири лавозимида фаолият юритиб, мустақил юртимизнинг ички ишлар органлари шаклланиши ва такомиллашувига унинг беқиёс хизматлари сингган. Кўксини «Буюк хизматлари учун», «Фидокорона хизматлари учун», I даражали «Шон-шараф» орденлари безаб турибди. Бугунги кунда ҳам Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси сифатида ёш ходимларни, қолаверса барча ёшларни ватанпарварлик, фидойилик, бурчга садоқат руҳида тарбиялашга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда. Куни кеча Президентимизнинг Фармонига кўра «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси» фахрий унвони билан тақдирлангани унинг бу борадаги хизматларига берилган юксак баҳодир.

Зокиржон Алматов 15 йил давомида Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигига раҳбарлик қилди. Айниқса, мустақилликнинг дастлабки йилларида Ватанимиз оғир, синовли кунларни бошдан кечирди. Уюшган жиноятчилик кучайган, терроризм ва экстремизм хавфи ортган ана шундай мураккаб бир даврда у бузғунчи кучларга қарши курашишда қатъият кўрсатди. Бу инсон раҳбар сифатида ҳар қандай мураккаб вазиятларда ҳам тез ва тўғри қарор қабул қила олишини амалда кўп бора исботлади.

У вазирлик шахсий таркибини ягона мақсад йўлида бирлаштирди. Фидойилик борасида ўзи ходимларга намуна бўлди. Қолаверса, моҳир ташкилотчи, талабчан ва ғамхўр раҳбар сифатида салоҳиятини бор бўйи билан намоён этди. Истиқлолимизнинг илк йилларида мамлакатимиз ички ишлар органларида ўз даври учун ғоят муҳим ислоҳотларни амалга оширишга бош-қош бўлди. Бунинг натижасида тизимнинг фаолиятини такомиллаштириш бўйича ҳуқуқий, ташкилий ва амалий йўналишларда кенг миқёсли ишлар амалга оширилди. Бу саъй-ҳаракатлар тез орада ўз самарасини берди.

Ҳозирда эса давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан соҳада ислоҳотлар ўтказишга Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси сифатида ўзининг йўл-йўриқлари, бой тажрибаси, маслаҳатлари билан камарбаста бўляпти. Ана шу ислоҳотлар туфайли ички ишлар органлари халқимизнинг ҳимоячиси ва кўмакчисига, мамлакатимизда тинчлик ва осойишталикни, жамоат тартиби ва фуқаролар хавфсизлигини ҳимоя қилишнинг ишончли гаровига айланди. Айниқса, сўнгги йилларда ички ишлар органлари аҳолига ўз вақтида ва сифатли ёрдам кўрсатадиган, ҳар бир ходими томонидан халқ манфаатларига хизмат қилишни ўз хизмат бурчи деб биладиган ижтимоий йўналтирилган профессионал тузилмага айланиб бормоқда.

Бугун мамлакатимизда ёшлар тарбияси масаласига, уларнинг муаммоларини ҳал этишга ҳар қачонгидан ҳам катта эътибор қаратилмоқда. Уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, ҳуқуқий онгини юксалтириш, иқтидорини ривожлантириш, ахборот хуружлари ва носоғлом муҳитдан ҳимоялаш каби вазифалар ҳар қачонгидан ҳам муҳим. Негаки, ҳар қандай мамлакатнинг жадал ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши, халқнинг фаровон яшаши ўша давлатда ёшлар таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътибор даражасига чамбарчас боғлиқ. Шу маънода, Ўзбекистонда ёшлар масаласи давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Генерал-полковник Зокиржон Алматов ёшлар билан учрашувлар, бевосита мулоқот чоғида зарарли иллатларнинг қандай фожиаларга олиб келишини ўзининг бой ва серқирра фаолияти давомидаги кузатувлари мисолида очиб беряпти. У келажагимиз эгаларини мафкуравий хуружлардан, айниқса, терроризм ва экстремизм хавфидан огоҳликка даъват этмоқда. Қолаверса, уларни эл-юрт тақдирига дахлдорлик ҳисси билан яшашга, замонавий билимларни, касб-ҳунарларни эгаллашга ундамоқда. Шу тариқа ёш авлодни баркамол шахс сифатида тарбиялашга беқиёс ҳисса қўшяпти.

Яқинда Зокиржон Алматов 75 ёшни қаршиладилар. Фурсатдан фойдаланиб буюк устозимизни табаррук ёшлари ҳамда Ватанимизнинг юксак мукофоти билан муборакбод этамиз. У кишига узоқ умр, тансиҳатлик, Янги Ўзбекистоннинг эгалари бўлган ёшларни улуғ аждодларига муносиб авлод этиб тарбиялаш йўлидаги савобли фаолиятларида муваффақиятлар тилаймиз.

Бернора САДИКОВА.
полковник.

УНВОН МУБОРАК, АЗИЗ ҲАМКАСБЛАР!

Юрт осойишталигини сақлаш, фуқаролар хавфсизлиги ва қонун устуворлигини таъминлаш, жамоат тартибини мустаҳкамлашга қўшган муносиб ҳиссаси ҳамда 25 октябрь – Ички ишлар органлари ходимлари куни муносабати билан бир гуруҳ ходимларга навбатдаги «полковник» махсус унвони берилди.

Ҳамкасбларимизни ушбу юксак унвон билан табриклаб, уларнинг юрт осойишталигини асрашдек шарафли ва масъулиятли хизмат фаолиятида муваффақиятлар тилаймиз.

Жуманов Зафар Саттарович –
Ички ишлар вазирлиги Махсус ўқув маркази бошлиғи.

Нарзуллаев Шавкат Вохитович –
Навоий вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғи ўринбосари.

Абдумажитов Туланбой Мухамматназарович –
ИИВ Қоровул қўшинлари ҳарбий қисм командири.

ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

КИПРИККА ИЛИНИБ ТУРГАН ИНСОН УМРИ

Хотира уйғонса гўзалдир, дейди доно халқимиз. Агар ўша хотира бу дунёдан ўтиб кетган комил инсон ҳақида бўлса ва уни ёдга олган инсонлар фақат олижаноб фикрлар айтсалар, бундай суҳбатларни тингламоқ гўзал.

Ҳикоя қилинаётган қаҳрамонимиз кўҳна Бухоронинг марди майдон фарзанди, бир умр улуғ пирлар васиятларига қалбининг туб-тубидан содиқ қолган ва ҳалолликни ўзига шиор деб билган асл инсон Шамси Абдуллаевич Рахимов ҳақидадир.



Шамси Абдуллаевич болалигидан илмга интилган, тарихни яхши кўрарди, табиатни жуда севарди. У ақлини таниганидан буён каттаю кичикнинг кўнглини олишга ҳаракат қилар, ўрта мактабда ўқитувчиларининг энг ишонган ўқувчиси эди. Аммо ўша даврда учрайдиган етар-етишмовчиликлар улар оиласини ҳам четлаб ўтмади. Шу боис ҳам ҳали суяги қотиб улгурмаган бўлса-да, мактабга бормай тенгдошлари қатори Бухоро шаҳридаги Тикув фабрикасида ишчи бўлиб ишлай бошлади. Кейин 1954–1957 йилларда армия сафида хизмат қилди.

Хизматдан қайтгач, қаҳрамонимиз Бухоро шаҳар милиция бўлими милиционери лавозимида хизмат фаолиятини бошлади. Ўрта таълим ўқиши чала қолганлиги сабабли Ш.Рахимов Бухоро шаҳар Сталин номидаги 4-кечки ишчи ёшлар ўрта мактабида ҳам ўқиди. Ниҳоят 1960 йилда мактабнинг тўлиқ курсини аъло баҳолар билан тугатиб, етуклик аттестатини олгач, Бухоро шаҳар милиция бўлимида участка нозири лавозимига тайинланди.

Шамси Абдуллаевич соҳани мукаммал эгаллаб, махсус билим ва тажриба орттириш ниятида дастлаб Тошкент махсус милиция ўрта мактабини, 1969 йилда эса Тошкент олий милиция мактабини тамомлади.

Истеъфодаги полковник Ш.Рахимов 1961 йилда вилоят ИИБ тезкор вакили, 1965 йилда вилоят ИИБ жиноят қидирув бўлими тезкор вакили лавозимида сидқидилдан хизмат қилиб, оғир турдаги жиноятларни фош қилинишида самарали ҳисса қўшиб келган. 1969 йилда вилоят ИИБ жиноят қидирув бўлими бошлиғи лавозимида хизмат қилиб, 1974 йили вилоят Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг биринчи ўринбосари лавозимига тайинланган.

Собиқ СССР Прокуратурасининг терговчилари Т. Гдлян ва Н. Иванов томонидан олиб борилган тергов ҳаракатлари пайтида Бухоро вилоятида ҳам бир қатор раҳбарлар асоссиз жиноий жавобгарликка тортилган. Улар орасида Шамси Абдуллаевич Рахимов ҳам бор эди.

– Раҳматли дадамиз ноҳақликни ва адолатсизликни ёмон кўрардилар. Ўша пайти вилоят Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг биринчи ўринбосари лавозимида фаолият кўрсатаётган эдилар, – дея хотирлайди Шамси Рахимовнинг тўнғич қизи Амина опа. – Шу боис йўл қўйилаётган жиддий қонун бузилишларни кунда кўравергач, дадамнинг хизматдан кўнгли совиди ва истеъфога чиқиш мақсадида ариза ёздилар. Бироқ у кишининг аризаларини инобатга олишмади. 1986 йилда эса ички ишлар органларидан бўшатилиб, жиноий жавобгарликка тортиладилар ва озодликдан маҳрум этиладилар.



Шундай қилиб, Ш.А.Рахимов «ўзбек иши»нинг қурбонига айланди. Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг 1998 йил 11 сентябридаги 27-сонли қарори билан Ўзбекистон Республикаси жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъатининг 1986 йил 13 майдаги Бухоро вилояти Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг собиқ ўринбосарлари милиция полковниги Рахимов Шамси Абдуллаевич ва милиция подполковниги Мулин Владимир Васильевичларга оид қисмини уларнинг ҳаракатларида жиноят таркиби бўлмаганлиги сабабли Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал Кодексининг 83, 493-моддалари асосида бекор қилиниб, жиноят ишининг шу қисми тугатилган.

– Дадам оқланиб чиққанларидан кейин унвону мартабалари қайта тикланди. Аммо соғлиқларини тиклашнинг ўзи бўлмади. У кишига Иккинчи жаҳон уруши қатнашчисига тенглаштирилган биринчи гуруҳ ногирони сифатида нафақа тайинланди, – дейди кенжа қизлари Гулнозхон. –Дадамиз ҳалол ва тўғри сўз бўлганларки, ҳалигача бирор маротаба у киши ҳақида салбий гап эшитмаганмиз. Ўғри ва порахўрларга қаҳрлари қаттиқ бўлган. Шунингдек, ходимларга ҳам қатиққўллик қилган. Кийиму юриш-туришларини доимий кузатганлар. Ҳаттоки, дастрўмолчаси тоза бўлмаса, сафдан чиқариб юборганлар. Дадамизнинг яна бир одатлари: китоб мутолаа қилишни яхши кўрардилар. Уйимизда беш мингдан ортиқ китоблари жамланган эди. Деярли барчаси русча бадиий асарлар бўлган. Бизни рус мактабда ўқитмадилар, лекин мустақил ўрганишимиз учун барча шароитларни яратиб берганлар. Мени шифокор бўлишим учун ҳам тиббиёт соҳасига оид китоблар келтириб берардилар. Ўша даврда ҳам қўл остидаги ходимларни китоб мутолаа қилишга ундаганлар. Хоналарида ихчамгина китоб жавонлари бўлган ва уни доимий янгилаб турганлар. Ишга кирмоқчи бўлган ёшларга қийин сўзлар ёздириб синовдан ўтказарди, деган эди шогирдларидан бири. У киши имло хато қилганларни кечирмаган, ишга ҳам олмаганлар. Яна дадамиз «Китобсиз ҳаёт ўлик дунё» дердилар. У киши жуда саховатпеша эди. Ўзи қамоқда бўла туриб, Иркутскдаги болалар фондига, Арманистондаги зилзила оқибатлари фондига бир неча марта хайрия юборган эканлар...

Шамси Абдуллаевич Малика ая билан ҳавас қилса арзигулик оила соҳиблари эдилар. Бу қўрғонда тўрт қиз ва бир ўғил вояга етди. Фарзандларнинг ҳаммасини ўқитиб, эл корига ярайдиган инсонлар қилиб тарбиялашди. Ўғли Фахриддинжон муҳандислик касбини танлаган бўлса, унинг зурриёди Шоҳруҳ Раҳимов бобосининг шарафли йўлини танлади. У ички ишлар органларида фаолият кўрсатмоқда.

Қатағон йилларидаги қамоқхона асоратими ёки ўзини аямасдан қилинган хизмати унинг заифлашган соғлиғига таъсир кўрсатмай қолмади. Шамси Абдуллаевич 2003 йил олтмиш саккиз ёшида вафот этди. Қисқа, лекин ёрқин ҳаёти Ватанга, касбига садоқат намунаси бўлган инсон орамиздан кетди.

Турмуш ўртоғи Малика ая эса 2020 йилда боқий дунёга рихлат қилди...

Мирзо Абдулқодир Бедил айтган эканлар: инсон умри киприкка илиниб турган ёшга ўхшайди. Буни қарангки, бу дунёю у дунё оралиғи илиниб турган бир томчи ёш сирғалиб тушганчалик вақт экан. Ҳа-да, еламиз-югурамиз, тошамиз-шошамиз ва бир кун келиб ҳаммасини ташлаймиз-кетамиз. Барчанинг қисмати шундай. Бироқ яхшилар ўлмайди, айниқса, Шамси Абдуллаевич Рахимов сингари комил инсонларнинг номлари нафақат ички ишлар органлари тарихида, балки халқимиз қалбида ўчмас саҳифа бўлиб қолади.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.
Бухоро вилояти.

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT DARSI

JAHON TAMADDUNI RIVOJIDA MIRZO ULUG‘BEKNING O‘RNI

Ko‘plab buyuk ajdodlarimiz jahon tamadduni rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ulardan biri Mirzo Ulug‘bekdir. Uning ilmiy-ma’rifiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish maqsadida joriy yil buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Buyuk qomusiy olim, astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek o‘zining boy ilmiy-ma’rifiy merosi hamda mislsiz bunyodkorlik faoliyati bilan yurt taraqqiyoti va jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulkan tarixiy siymodir.

Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan. 1405-yil, Markaziy Osiyodan tashqari, Yaqin va O‘rta Sharqning barcha hududi, O‘rta yer dengizidan Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan katta yerni o‘z ichiga olgan ulkan saltanatni yaratgan buyuk Amir Temurning vafotidan so‘ng, butun merosiy mulki uning o‘g‘il va nabiralariga o‘tadi. Sohibqiron bobomizning o‘g‘li – Shohrux Movarounnahr boshqaruvini to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bekka topshiradi. 1409-yili Ulug‘bek Samarqand hokimi etib e’lon qilinadi, otasi Shohruxning o‘limidan so‘ng, 1447-yil Temuriylar sulolasiga bosh bo‘ladi.



Ulug‘bek o‘z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Shohrux vafotidan keyin Ulug‘bekning to‘ng‘ich o‘g‘li Abdullatif voris sifatida Temuriylar hukmdori bo‘lib qoladi. Keyinchalik otasi Mirzo Ulug‘bekka qarshi urush e’lon qiladi. So‘ng otasiga Makka ziyoratiga borishlikni taklif etadi. 1449-yilda Ulug‘bek Makkaga safari chog‘ida xoinona o‘ldiriladi. U Go‘ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Ulug‘bek otasi Shohrux davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil bo‘lgan. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Uning davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me’morchilik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksalgan, savdo taraqqiy etgan. Buxoroda, Samarqandda, G‘ijduvonda madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurilgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan, ko‘proq aniq fanlarga ahamiyat berilgan. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poytaxtimizdagi yirik olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda uning memorial muzeyi tashkil etilgan. Buyuk ajdodimizning hayoti va faoliyati haqida atoqli ijodkorlar M.Shayxzoda «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasini, O.Yoqubov «Ulug‘bek xazinasi», S.Borodin «Samarqand osmonida yulduzlar» romanini yozgan. Taniqli rejissyor Latif Fayziyev «Ulug‘bek yulduzi» nomli film yaratgan.



yoniga yetkazilgan. Bundan tashqari, mamlakatda tim, chorsu, hammom kabi ko‘plab jamoat inshootlari ham bunyod etilgan.

Mirzo Ulug‘bekning O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog‘onasiga olib chiqqan. Uning qilgan eng buyuk ishi – Samarqand ilmiy maktabini, o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari – Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug‘bekning ilmiy maktabi o‘z faoliyatida mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abul Abbos al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergan ilmiy an’anaga asoslanar edi. Ulug‘bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi.

Ulug‘bek akademiyasidagi yirik olim — Ali Qushchini Ulug‘bek «Ziji»ning so‘zboshisida «farzandi arjumand», ya’ni «aziz farzandim» deydi. Aslida u Ulug‘bekning sadoqatli shogirdi bo‘lib, «Zij» ustida ishlar poyoniga yetkazilguniga qadar ustoziga yordam bergan.

Ulug‘bek Samarqandda ikkita madrasa barpo etgan. Biri Registon ansambli, ikkinchisi Go‘ri Amir ansambli tarkibida bo‘lgan. Boshqa yirik olimlar qatorida uning o‘zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma’ruza o‘qigan. Ko‘proq vaqtini astronomik kuzatishlarga, «Zij» ustida ishlashga va davlat ishlariga bag‘ishlagan.

Ulug‘bekning yana bir matematik asari «Risolai Ulug‘bek» deb ataladi va uning bir nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Yaqin yillargacha Ulug‘bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo‘lib, tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Navoiyning «Majolis un-nafois» va Abu Tohirxojaning «Samariya» asarlarida ham uning she’rlaridan namunalar keltirilgan.

Uning davrida ko‘pgina asarlar arab va fors tilidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug‘bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob bo‘lgan. Alisher Navoiy «Xamsa» asarida uni ulug‘lab, shunday yozgan edi:

Temurxon naslidan
Mirzo Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton
aningdek,
Ki davr ahli biridin
aylamas yod,
Aning obnoyi jinsi bo‘ldi
barbod.
Valek ul ilmi sari topdi
chun dast,
Ko‘zi oldinda bo‘ldi
osmon past.
Rasadkim bog‘lamish —
zebi jahondur,
Jahon ichra yana
bir osmondur,
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi
«Ziji Ko‘ragoniy».

Uzoq va yaqin o‘tmish muallifla-rining ta’kidlashicha, Ulug‘bek yoshligidan boshqa fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid risola ham yozgan.

Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish hamda ommalashtirish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Uning davrida bunyod etilgan me’moriy obidalarni asrab-avaylashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi ko‘plab aholi yashash maskanlari, ta’lim muassasalari, poytaxtimizdagi yirik tuman Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Mamlakatimiz va xorijda olimning muazzam haykallari o‘rnatilgan. Ulug‘bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi mashhur

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

JIZZAX VILOYATI

MUG‘OMBIR TUMSHUG‘IDAN ILINAR



Zomin tumanining Dashtobod shaharchasida istiqomat qiluvchi B.M. ixtiyoridagi «Lacetti» avtomashinasining old yon oynalarining tusi o‘zgartirilishiga doir ruxsatnoma muddati 2 oy ilgari tugaganligini bilsa-da, uni uzaytirish yoki tonirovka plyonkasini olib tashlash chorasini ko‘rmadi. Viloyat IIB JXX YHXB YPX batalyoni 3-safarbar guruhi YPX inspektori, safdor Sirojiddin Abdullayev hujjatlarini tekshirish maqsadida to‘xtatganida esa inspektorni ko‘rib, kapalagi uchib ketdi.

Ammo tezda o‘ziga kelib, inspektorni noqonuniy xatti-harakatlar qilishga unday boshlagan qoidabuzar 100 AQSH dollari evaziga ma’muriy bayonnomani yengilroq jarima belgilanadigan tarzda rasmiylashtirishni taklif qildi.

Buning ustiga, YPX inspektorining avtoulovni jarima maydoniga eltishga oid talabiga ko‘nmadi. Ushbu holat yuzasidan IIV SHXBB viloyat bo‘yicha bo‘limi hamda prokuratura xodimlari hamkorligida o‘tkazilgan tezkor tadbir davomida qoidabuzar B.M. jinoyat ustida qo‘lga olindi. «Mug‘ombir tumshug‘idan ilinar», deganlari shu bo‘lsa kerak-da...

O‘z muxbirimiz.

XIZMAT JOYI – QOROVUL QO‘SHINLARI

O‘ZIMIZNING ZULFIYA OPA

Yurt himoyasiga chog‘langan sheryurak yigitlar bilan bir safda zimmalariga mas’uliyatli va sharafli vazifani olgan xotin-qizlarimizdan biri IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli 7536-harbiy qism 3-batalyon harbiy nazoratchisi, kichik serjant Zulfiya Sultonova.

– Bu kasbni tanlashimda turmush o‘rtog‘im iste’fodagi serjant Haydar Yahyoyevning o‘rni beqiyosdir, – deydi lavhamiz qahramoni. Avvaliga batalyonda askarlar oshxonasi katta oshpazi bo‘lib ish boshladim. So‘ngra vzvod ish yurituvchisi, shaxsiy tarkib bilan ishlash guruhi mas’ul ijrochisi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdim. Ustozlarim – iste’fodagi kichik serjant Ma’mura Mamatova, katta serjant Usmon Hotamovlar kasb mahoratimni oshirishda yaqindan ko‘maklashdi. Ularning yo‘l-yo‘riqlari, maslahatlariga amal qilib kam bo‘lmadim.

Kichik serjant Z. Sultonova bu kasbni tanlab adashmadi. Uning nafaqat jamoada, balki harbiy qismda ham o‘z mavqeyi, obro‘-e’tibori bor. Oilada ikki qiz va bir o‘g‘ilning mehribon onasi. Farzandlarining tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Bo‘sh paytlarida esa badiiy adabiyotlar mutolaa qiladi. Uyida mo‘jazgina kutubxonasi bor. Farzandlarini ham kitob o‘qishga undaydi. Bu harakatlar besamar ketmadi. To‘ng‘ich qizi Nazokatxon va o‘g‘li Samandarjon Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olishmoqda. Kenjasi Farangiz esa hozir maktabda o‘qiydi. U ham opasi va akasi kabi oliy ma’lumotli bo‘lish niyatida.

Zulfiya Sultonova jamoatchilik ishlarida ham faol. Ayollar o‘rtasida o‘tkazilayotgan sport musobaqalarida faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Xizmatdoshlari doimo, «O‘zimizning Zulfiya opamiz» deya, hurmat bilan tilga olishadi.

Kichik serjant Z. Sultonova o‘n besh yildirki, bir jamoada faoliyat ko‘rsatib kelyapti. U xizmatning sir-asrorlarini o‘rgatgan ustozlari va turmush o‘rtog‘idan umrbod minnatdor. Endilikda o‘zi ham yosh harbiy xizmatchilarga ustozlik qilyapti.



Sanjar NORMURODOV,
kapitan.

Buxoro viloyati.

G‘AMXO‘RLIK

HAMISHA DUODAMAN!


8-oktabr kuni o‘zining tabarruk 87 yoshini qarshi olgan Aymanjon aya Polvanova Xorazm viloyati IIB Tergov hibsxonasida nazoratchi, vaqtinchalik saqlash hibsxonasi navbatchisi lavozimlarida xizmat qilib, serjant unvonida nafaqaga chiqqan. «Faxriylar haftaligi» doirasida viloyat IIB xodimlari onaxonning ham holidan xabar oldilar.

– Biz kabi keksalarni unutmay, yo‘qlab turgan respublika, viloyat ichki ishlar organlari rahbarlariga, hukumatimizga katta minnatdorlik bildiraman, – deydi A. Polvanova. – Yangi O‘zbekistonimizning kundan-kun rivoj topib borayotganligini ko‘rish nasib etayotganidan juda-juda baxtiyorman. Elimiz, yurtimiz, yurtboshimiz uchun hamisha duodaman!

Kunlar o‘tar, yillar shitob, umr yuzga iz solar,
Shul sabab ehtiromga munosibdir keksalar.
Qo‘lni ko‘ksiga qo‘ygan yangi avlodni ko‘rib,
Gul chehralar yorishgay, ko‘ngil so‘rab kelsalar.

Урок духовности и просвещения

РОЛЬ МИРЗО УЛУГБЕКА В РАЗВИТИИ МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ



Многие из наших великих предков внесли огромный вклад в развитие мировой цивилизации. Один из них – Мирзо Улугбек. В целях более глубокого изучения его научно-просветительского наследия на национальном и международном уровне в этом году принято постановление Президента Республики Узбекистан «О широком праздновании 630-летия со дня рождения великого энциклопедиста и известного государственного деятеля Мирзо Улугбека».

Великий энциклопедист, астроном и математик, выдающийся ученый своего времени, государственный деятель, правитель Мавераннахра Мухаммад Тарагай Мирзо Улугбек своими обширными научными трудами и неоценимой созидательной деятельностью внес значительный вклад в развитие нашего края и мировой цивилизации.

Мирзо Улугбек (Мухаммад Тарагай) родился 22 марта 1394 года в Султании (на территории нынешнего Азербайджана). За свою жизнь он заслужил признание не только как правитель и политический деятель, но и как великий ученый, чьи работы оказали влияние на поколения исследователей.

С юности Улугбек проявлял большую склонность к наукам и искусствам, особенно к математике и астрономии, обладал незаурядной памятью. Огромную роль в его увлечении сыграло чтение древних фолиантов из огромной библиотеки, собранной его дедом и отцом, в которой он проводил большую часть своего времени.

В 1405 году умер его знаменитый дед. Во главе династии Темуридов встал сын Темура – Шахрух, который избрал своей резиденцией Герат. Мавераннахр был отдан старшему сыну Шахруха – Улугбеку. В 1409 году Улугбек был объявлен правителем Самарканда, а после смерти отца стал главой династии Темуридов.

Улугбек всю свою энергию, богатство и влияние направил на развитие науки, культуры и образования в родной стране.

Под его руководством были построены медресе и обсерватория в Самарканде, которые стали важнейшими учреждениями того времени для научных исследований. Его обсерватория, известная как «Самаркандская обсерватория», по праву считается одной из крупнейших и самых точных астрономических обсерваторий Средневековья.

Наибольшую известность Мирзо Улугбек получил за свои исследования в области астрономии. Его главное произведение – «Зиджи-Курагоний» – представляло собой каталог звезд, содержащий информацию о положении более чем тысячи светил. Этот труд стал одним из ключевых источников для европейских астрономов в эпоху Возрождения. Улугбек с поразительной точностью определил положение звезд и планет, а также вычислил продолжительность года с погрешностью всего в несколько секунд. Это стало выдающимся достижением для своего времени и оставалось эталоном на протяжении нескольких столетий.

Научные открытия не только обогатили астрономию, но и способствовали развитию математики. В частности, его работы по тригонометрии сыграли важную роль в развитии этого направления науки. Мирзо Улугбек внес существенный вклад в развитие методов вычисления углов и тригонометрических таблиц, которые применялись в астрономических расчетах. Еще одно произведение Улугбека называется «Рисолаи Улугбек». Этот трактат хранится в библиотеке университета Алигарх в Индии.

До недавнего времени считалось, что Улугбек занимался исключительно астрономией и математикой. Однако в конце XX века было установлено, что его творчество было многогранным, он также проявил себя в истории, поэзии, музыке. В произведениях Навои «Маджолис ун-нафоис» и Абу Тохирхожи «Самария» приведены образцы его стихов.

Кроме того, благодаря его правлению Самарканд стал международным научным центром, привлекавшим ученых со всего исламского мира. Улугбек активно поддерживал развитие науки и образования, что способствовало укреплению научных связей между Востоком и Западом. Многие ученые того времени приезжали в Самарканд, чтобы учиться и работать в его обсерватории.

Однако жизнь Мирзо Улугбека не была простой. Как политический лидер, он столкнулся с рядом трудностей, связанных с управлением государством. Внутренние конфликты и борьба за власть в конечном итоге привели к его гибели. Несмотря на это, его научное наследие продолжало жить и оказывать влияние на развитие мировой науки.

Работы Улугбека оказали большое влияние на европейскую науку. В период Возрождения европейские ученые, такие как Тихо Браге и Иоганн Кеплер, использовали его таблицы звезд для своих исследований, а его методы вычисления оказали значительное влияние на развитие астрономических и математических методов в Европе.

Одним из важнейших вкладов Улугбека стало создание условий для дальнейшего развития науки. Его пример как ученого-правителя показал, что наука и государственная власть могут сосуществовать, поддерживая друг друга. Его влияние также отразилось и в развитии исламской науки, которая продолжала процветать в Центральной Азии, несмотря на политические и социальные потрясения.

Таким образом, Мирзо Улугбек оставил неизгладимый след в истории мировой науки. Его достижения в астрономии, математике и поддержка научных исследований сыграли важную роль в развитии мировой цивилизации, а наследие продолжает вдохновлять исследователей по всему миру даже спустя столетия.

В годы независимости в целях всестороннего изучения и популяризации жизни и деятельности Мирзо Улугбека регулярно проводятся многочисленные исследования и научно-практические конференции, в том числе на международном уровне. Особое внимание уделяется сохранению памятников архитектуры, возведенных в его эпоху. В настоящее время многие населенные пункты и образовательные учреждения нашей страны, а также крупный район столицы названы в честь Мирзо Улугбека. В Узбекистане и за рубежом установлены памятники ученому. Образ Улугбека также занял место среди портретов всемирно известных ученых в обсерватории Пулково и конференц-залах Московского университета. В Самарканде организован его мемориальный музей. О жизни и деятельности нашего великого предка, его бессмертном наследии писали известные деятели. М. Шайхзода создал трагедию «Мирзо Улугбек», О. Ёкубов написал роман «Сокровище Улугбека», а С. Бородин подарил читателям произведение «Звезды над Самаркандом». Знаменитый режиссер Латиф Файзиев снял фильм под названием «Звезда Улугбека».



Специализированная государственная общеобразовательная школа-интернат.

Соб. корр.

IJTIMOIY HIMOYA

BAYRAMGA ZO‘R TUHFA

Mamlakatimizda el-yurt osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida samarali xizmat qilib kelayotgan ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan 30 nafar farg‘onalik yurt posboniga ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olishi uchun dastlabki badal to‘lovlari ajratildi.



Viloyat IIB Ma’naviyat va ma’rifat zalida o‘tkazilgan tadbirda boshqarma boshlig‘i, general-mayor Azizbek Ikramov xodimlarga maxsus sertifikatlarni tantanali ravishda topshirdi.

– Uy-joy sotib olish uchun menga 102 million 500 ming so‘m miqdoridagi dastlabki badal to‘lovi ajratildi, – deydi kapitan Umidjon Teshaboyev. – Bu bayramga zo‘r sovg‘a bo‘ldi. Albatta, bundan oila a’zolarim ham behad mamnun. Endilikda, bu g‘amxo‘rlikka javoban, yanada samarali xizmat qilishga ahd qildim.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.

PROBATSIYA XIZMATI

KO‘MAK RUHIY QANOT BERADI

Behzod Mirzoqulov Sardobaning keng dalalarida yugurib ulg‘aygan yigitlardan. O‘ttiz olti yoshli yigit dastlab ustachilik bilan shug‘ullandi. Odamlarning imoratlariga g‘isht urdi. Keyinchalik nima ish duch kelsa, bajarib yuradigan mavsumiy ishchiga aylandi. Bu esa unga omadsizlik keltirdi. Biri ikki bo‘lavermagach, o‘g‘rilikka qo‘l urdi. O‘tgan yili ushbu jinoyati uchun sud hukmi bilan uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi. Oradan ko‘p o‘tmay, joriy yil may oyida Behzodning jazosi ozodlikni cheklash jazosiga almashtirildi.



Sardoba tumani IIB Probatsiya guruhi nazorati ostida 180 nafardan ortiq shaxs bo‘lib, «Do‘stlik» mahallasida istiqomat qiluvchi Behzod Mirzoqulov ulardan biri. Belgilangan vaqtda o‘z yashash hududida bo‘lishi, jamiyatga zarar keltiradigan xulq-atvorda bo‘lmasligi doim nazoratda. Probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Otabek Begaliyev bu borada katta tajribaga ega. U nazoratdagi shaxslarning ruhiy, ijtimoiy, shaxsiy muammolari bilan qanday kurashish zarurligini yaxshi anglaydi. Hayotda hamma ham adashishi mumkinligini, bundan buyog‘iga to‘g‘ri yo‘ldan yursa hamma ishlari yaxshi bo‘lishini tushuntirdi va uni tadbirkorlik qilishga undadi...

Oradan ko‘p vaqt o‘tmadi. Mayor Otabek Begaliyev Behzodga qariyb 10 million so‘m subsidiya ajratilishiga erishdi. Mol bozori yaqinida kichikkina joy topildi. U yerga stol-stullar o‘rnatildi. Ilgari do‘kon sifatida ishlangan, qarovsiz qolgan ikkita xona tozalandi, ta’mirlandi. Qarangki, ko‘p o‘tmay xo‘randalarga oshxona yoqib qoldi. Doimiy mijozlari paydo bo‘ldi.

– Adashib jinoyatga qo‘l urdim, – deydi Behzod biz bilan suhbatda. – Lekin ichki ishlar organlari xodimlari menga har tomonlama yordam berishdi. Subsidiya olib berishdi. Bozordan joy topish uchun qo‘llaridan kelgan barcha ishni qilishdi. Natijada oilamni moddiy ta’minlash imkoni paydo bo‘ldi. O‘zim esa muddatidan oldin jazoni o‘tashdan ozod bo‘lish arafasidaman. Buning uchun o‘z minnatdorligimni bildiraman.

Tuman IIB Probatsiya guruhi faoliyatida bu kabi misollar ko‘p. Joriy yilning o‘zida o‘ttizdan ortiq shaxslar jazodan muddatidan oldin ozod etilgani buning yaqqol isbotidir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

XIZMATDAN TASHQARIDA

«OTLAR – MENING DO‘STLARIM»

Bu jonivorlar qadimdan insonga yaqin ko‘makchi do‘st bo‘lib kelgan. Ularda mustahkam xotira bo‘lib, parvarishlagan, mehr ko‘rsatgan odamni hech qachon unutmaydi.

Bu haqda otasidan eshitgan Yerjanning qalbida bolalik chog‘laridayoq otlarga mehr o‘yg‘ondi. U ertalab ko‘zini ochishi bilan qora qashqaning yoniga yugurardi. Silab-siypar, og‘ildan beda olib chiqib, berardi. Buni ko‘rgan otasi «Bolam, sendan ajoyib chopag‘on chiqadi» deya, uni ko‘pkari va ot sporti musobaqalariga olib borardi.

Yerjan maktabda fanlarni puxta o‘zlashtirib, bo‘sh vaqti bo‘ldi deguncha, otlarni yuvib-tarar, dalaga olib chiqib, sayr qildirardi...

Sevimli otlari bilan ulg‘aygan Yerjan huquq-tartibot yo‘nalishida kasb egallashni niyat qilib, IIV Akademiyasiga o‘qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi. Ilk xizmat faoliyatini Chinoz tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida boshlab, ustozlari yordamida soha sirlarini mukammal egalladi. Keyinchalik turli sohaviy xizmatlarda faoliyat ko‘rsatdi. Hozir Chinoz tumanidagi 1-sonli IIB boshlig‘i.

Mayor Yerjan Xudayberganov xizmatdan bo‘sh paytida xobbisi bilan mashg‘ul. Otxonaga kirishi bilan jonivorlar uni go‘yo o‘z tillarida salom berib qarshi olishadi.

– Otlar – mening do‘stlarim. Ular juda sezgir, hatto inson ovozidagi his-tuyg‘ularni ham idrok eta oladi, – deydi mayor Yerjan Xudayberganov. – Hozir beshta biya va ularning toychoqlarini parvarishlayapman. «Boytumor» va «Braun» laqabli chopag‘on otlarim esa katta uloq musobaqalarida doim zot ayirib kelyapti.

Mixli SAFAROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



TADBIR

URGANCHDA «ENG YAXSHI KITOBXON» TANLOVI

Mahmud az-Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazida ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasidagi «Eng yaxshi kitobxon» ko‘rik-tanlovining respublika final bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalarining eng faol kitobxon xodimlari ishtirok etdi.



Tanlov ishtirokchilari «Siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy kitoblar bilimdoni», «Badiiy kitoblar bilimdoni» va «Men sevgan adib» yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro bahs olib bordi. Hakamlar hay’ati qatnashchilarning har bir chiqishini diqqat bilan tinglab va kuzatib, xolisona baholab bordi.

Yakuniy xulosalarga ko‘ra, Xorazm viloyati IIB TQX JQB Kadrlar guruhi muhim topshiriqlar bo‘yicha inspektori, mayor Nargiza Bekchanova ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi g‘olibi deb topildi. Samarqand viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi Yuridik ta’minlash guruhi katta yurisconsulti, kapitan Jo‘rabek Nuraliyev ikkinchi, Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Yahyobek Sirojiddinov uchinchi o‘ringa munosib ko‘rildi.

– Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda kitobdan-da ulug‘roq, qudratliroq vosita yo‘q, – deydi ko‘rik-tanlov hakamlar hay’ati raisi, iste’fodagi polkovnik Zikrilla Ne’matov. – Shu bois, kitobni xazinalar kaliti, tafakkur chirog‘i, deyishadi. Zero, tafakkuri, dunyoqarashi keng, ma’rifatli insonlar jamiyatning mustahkam poydevori, chinakam tayanchidir.

Ko‘rik-tanlov g‘olib va sovrindorlari diplom, kitoblar jamlanmasi, pul mukofoti hamda qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.



Коллеги называют старшего юрисконсульта отдела юридического обеспечения УВД Самаркандской области книголюбом, потому, что Журабек каждый год занимает призовые места в интеллектуальных конкурсах «Заковат» и «Зукко китобхон» («Образцовый книголюб»), проводимых среди сотрудников органов внутренних дел. Второе место в республиканском этапе конкурса «Самый лучший чтец» яркий тому пример.



Рассказывая о своих победах в конкурсах, Журабек отметил, что свободное время любит проводить за чтением книг. Его мать – педагог по профессии, всегда хотела, чтобы дети выросли образованными и достигли успехов. В их доме есть небольшая библиотека. Он пошёл по стопам отца, подполковника в отставке Шавката Рузиназарова, который много лет прослужил в органах внутренних дел.

Журабек после окончания Академии МВД в 2020 году был назначен на должность инспектора профилактики в махалле Турон родного Пастдаргомского района, затем продолжил службу инспектором по работе с молодежью.

– Моим наставником является подполковник Муродулло Каттакулов. Он ежедневно делится опытом и знаниями, учит работать с документацией, защищать репутацию управления в суде, – продолжил диалог Ж. Нуралиев. – Бывает трудно, временами даже невыносимо, но, время показало, что я на верном пути, Помогая людям, получаю новый импульс для дальнейших достижений.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.

KECHA VA BUGUN





25-OKTABR – ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI

MUHIMI – ODAMLARNING ISHONCHI

– deydi profilaktika inspektori, katta leytenant Lochinbek Ashurov

«Bog‘ichinor» mahallasi – Samarqand shahridagi osoyishta hududlardan biri. Bu mahalla osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan profilaktik tadbir natijasi, albatta. Mazkur ishlarni mahalla profilaktika inspektori, katta leytenant Lochinbek Ashurov olib boradi. Unga yordamchisi Behruz Zilfiqorov yaqindan ko‘mak berib keladi.



Katta leytenant Lochinbek Ashurov ilk xizmat faoliyatini 2020-yilda Jomboy tumani IIBda voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha inspektor-psixolog sifatida boshlagan. Joriy yilda esa Samarqand shahridagi aholi zich joylashgan «Bog‘ichinor» mahallasi profilaktika inspektori lavozimiga o‘tkazildi.

– Eng muhimi – aholini yaxshi bilish va ularning ishonchini qozonish, – deydi profilaktika inspektori. – Fuqarolarni qabul qilish, hujjatlar bilan ishlash kundalik faoliyatimizning bir qismi, xolos. Yordamchim Behruz Zilfiqorov bilan birgalikda xonadonlarda bo‘lib, aholi bilan muloqotda bo‘lamiz. Zarurat tug‘ilganda maishiy nizolarni ham hal qilishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, ayni paytda «Bog‘ichinor» mahallasida 4300 nafar fuqaro istiqomat qiladi. Hududdagi tinch-osoyishta oilalar kishida havas uyg‘otishi bor gap. Biroq muammosi bor fuqarolar, notinch xonadonlardagi vaziyat profilaktika inspektorining nazorati ostida, ular bilan muntazam profilaktik ishlar olib boriladi.

Zamira BOLTAYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

DOLZARB OYLIK

OG‘USIZ DUNYO SARI

Joriy yilning 20-sentabr – 20-oktabr kunlari poytaxtimizda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish» dolzarb oyligi o‘tkazildi.



Oylik doirasida joylarda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillari bilan hamkorlikda qator tezkor-profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, jami 58 kilogramdan ortiq «zahri qotil» aniqlanib, 513 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi. Joylarda ichki ishlar organlari xodimlari, sudyalar va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar ishtirokida 17 marta sayyor sud majlislari o‘tkazildi. Giyohvandlik vositalarini tarqatuvchi shaxslar hamda ularni olib ketuvchilar bilan bog‘liq 300 dan ortiq holat aniqlangan. Ulardan 20 kilogramdan ortiq modda ashyoviy dalil sifatida olindi.

Afsuski, so‘nggi yillarda psixotrop moddalar va ularning analoglari bo‘lgan sintetik moddalarning ulushi ortib bormoqda. Buni oylik davomida 28 kilogramdan ortiq sintetik moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yilgani misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

– Narkographiti bino va inshootlar devorlariga bo‘yoq bilan qilingan yozuvlar bo‘lib, ular giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni onlayn sotishga ixtisoslashgan internet do‘konlarining elektron manzillarini ifodalovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri reklama hisoblanadi, – deydi Toshkent shahar IIBB Tezkor-qidiruv xizmati JQB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik Sardor Kuramboyev. – Buning oldini olish bo‘yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilib, qariyb 600 ga yaqin narkographiti yozuvlari aniqlanib, barchasi o‘chirildi.

Tadbir davomida ichki ishlar organlari xodimlari hamda tegishli idoralar vakillari ishtirokida ta’lim muassasalari, tashkilot va korxonalarda, mahallalarda profilaktik-tushuntirish tadbirlari, uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirildi.

Shuningdek, jinoyatchilik, ayniqsa, giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish maqsadida «Biz giyohvandlikka qarshimiz!» mavzusida rasm tanlovlari tashkil etildi. Xususan, Uchtepa tumanida tashkillashtirilgan tanlovda Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi o‘quvchilari g‘olib deb topilib, tuman IIOFMB rahbariyati tomonidan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

SOHAVIY XIZMATLARDA

ISTE’MOLGA YAROQSIZ DEB TOPILDI

Andijon viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi xodimlari hamda viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi vakillari tomonidan viloyat dehqon bozorlarida muntazam ravishda reydlar o‘tkazilmoqda. Xususan, Andijon shahridagi hamda Asaka, Baliqchi, Bo‘ston, Oltinko‘l, Shahrixon va Izboskan tumanlaridagi dehqon bozorlaridagi reydlar davomida go‘sht rastalari ko‘zdan kechirilib, iste’molga yaroqsiz mol, tovuq va qo‘y go‘shti musodara etilib, belgilangan tartibda yo‘q qilindi. Tekshiruvlar davomida sut mahsulotlari, tuzlamalar



va uy sharoitida tayyorlangan yeguliklar iste’molga yaroqsiz ekani aniqlandi. Mahsulotlar belgilangan tartibda yoqib yuborilib, ularning egalari esa jarimaga tortildi.

Yaqinda Andijon shahridagi Markaziy dehqon bozorida o‘tkazilgan reyd davomida S.Iqbolga tegishli go‘sht mahsulotlari sifat borasida xodimlarda shubha uyg‘otdi. Shu bois tegishli miqdordagi go‘sht namunasi yaroqliligini tekshirish uchun viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi laboratoriyasiga yuborildi. Mutaxassislarning xulosasiga ko‘ra mahsuloti iste’molga yaroqsiz deb topildi. Sotuvchiga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi.

Shuningdek, Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi hamda viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi xodimlari tomonidan o‘tkazilgan reyd davomida Asaka shahar dehqon bozorida noma’lum sharoitda so‘yilgan 55 kilogramm qoramol go‘shtini olib kirayotgan I.Abdullaning qilmishi fosh etildi.

Viloyat veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi xulosasiga ko‘ra, ushbu go‘sht mahsuloti iste’molga yaroqsiz deb topildi va yoqib yuborildi. I.Abdullaga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddasiga asosan bayonnoma tuzildi.

Boris KLEYMAN,
o‘z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Служим во имя интересов народа!

СЛАЖЕННОСТЬ И МАСТЕРСТВО



Ансамбли и оркестры правоохранительных органов играют важную роль в культурной жизни любой страны. Особое место среди таких коллективов занимает Образцово-показательный оркестр Караульных войск МВД Республики Узбекистан, во главе которого стоит талантливый и опытный военный дирижер – майор Нурлан Уринбетов.



Родился герой нашего очерка в 1985 году в городе Янгиюль Ташкентской области. В 2007 году он окончил бакалавриат, в 2009 году – магистратуру Государственной консерватории Узбекистана. Начинал служебный путь с должности артиста высшей категории в Образцово-показательном оркестре военной части № 7531. На нынешней должности с 2014 года.

– В моем становлении, как музыканта сыграли большую роль мои дяди. Они окончили Узбекский государственный институт искусств и культуры, некоторое время служили в военных оркестрах. С 5-го класса я начал обучение в Республиканской специализированной школе-интернате искусств. Играю на двух инструментах – кларнете и фортепиано, – говорит Н. Уринбетов.

С детства отличавшийся общительностью и организаторскими способностями, Нурлан часто выступал на школьных концертах, участвовал в разных конкурсах и занимал призовые места. Вместе с учебой в консерватории он совмещал работу в Национальном симфоническом оркестре Узбекистана.

– Моей музой и источником вдохновения является любимая супруга. У нас подрастают трое детей: две дочери и сын. В доме царит творческая атмосфера. Мы с ранних лет прививаем детям любовь к музыке и искусству. Успешно продолжает служебную карьеру мой брат. Он тоже является музыкантом и служит в Образцово-показательном оркестре пограничных войск, – делится Нурлан Абдураззокович.

Возглавляя Образцово-показательный оркестр, герой нашего очерка не просто руководит коллективом музыкантов, а является человеком, который через музыку способен объединить людей, вдохновить и придать особое звучание службе правопорядка. Под его руководством оркестр становится неотъемлемой частью общественных мероприятий, государственных праздников, торжественных церемоний, подчеркивая значимость и престиж службы МВД.


Музыкальный репертуар оркестра включает в себя разнообразные произведения, от классической музыки и заканчивая патриотическими композициями. Оркестр регулярно выступает на государственных мероприятиях, праздничных концертах и акциях, проводимых МВД, что подчеркивает его важную роль в воспитании чувства патриотизма и уважения к правопорядку среди граждан.

Герой нашего очерка с особой теплотой вспоминает своего наставника – подполковника в отставке Люмана Фейзуллаева. Нурлан не только увлеченно постигал тонкости искусства военного дирижирования, но и с упоением совершенствовал свое мастерство.

– Профессия дирижера требует, кроме музыкального таланта, ярких лидерских качеств и коммуникабельности. Далеко не каждый талантливый музыкант может стать военным музыкантом. Для этого необходим еще целый комплекс особых качеств. Основная наша работа – не в теплых и комфортабельных концертных залах, а на плацу, в строю на улицах и площадях, на ветру и под палящим солнцем, под дождем и в морозы. А стало быть, требуется еще отменное здоровье, физическая подготовка. Кроме того, военному дирижеру необходим незаурядный дар воспитателя – для своего подразделения он еще и командир. Ведь офицер не только защитник Родины – это лицо армии, он должен иметь авторитет, быть примером. Дирижер военного оркестра воспитывает не только своих оркестрантов, но через них весь личный состав и всех слушателей, – делится Н. Уринбетов.

Соб. корр.





YILNING ENG YAXSHI MURABBIYLARI

Har qanday tizimning taraqqiyoti shu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning kasbiy malakasi va salohiyatiga bevosita bog‘liq. Shuni hisobga olgan holda ichki ishlar organlarida ko‘p yillik tajribaga ega xodimlar xizmat tajribasini o‘rganish, ommalashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.



Nukus shahrida «Yilning eng yaxshi murabbiyi-2024» ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar ichki ishlar idoralarida g‘olib deb topilgan 16 nafar xodim ishtirok etdi. Tadbir avvalida qatnashchilar ko‘rik-tanlov shartlari bilan tanishtirildi. So‘ng qatnashuvchilarning kasbiy bilim darajasi Test markazida aniqlandi. Vazirlikning o‘q otish maydonchasida esa xodimlarning jangovar tayyorgarligi sinovdan o‘tkazildi.

Tanlovning ikkinchi kunida Nukus shahridagi 1-sonli sport maktabida xodimlarning jismoniy tayyorgarligi sinovdan o‘tkazildi. Unda ishtirokchilar to‘singa tortilish, 100 va 1000 metr masofaga yugurish kabi mashqlarni bajarishdi.



Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyida ishtirokchilarning ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligi bo‘yicha bilimlari tekshirildi. Bundan tashqari, ularning xizmat davomida erishgan va shaxsiy yutuqlari tanlovning hay’at a’zolari tomonidan baholandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, polkovnik B.Torebekov g‘oliblarga diplom va esdalik sovg‘alarini tantanali ravishda topshirdi. Tadbir yakunida vazirlikning «Aral juldizlari» ansambli va litseyning o‘quvchi-yoshlari tomonidan taqdim etilgan konsert dasturi barchaga yanada xush kayfiyat baxsh etdi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

Ko‘rik-tanlov g‘oliblari:

1-o‘rin – Samarqand viloyati IIB TVBSO guruh komandiri, kapitan Zarifjon Eshpo‘latov.

2-o‘rin – Chimboy tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi katta mutaxassisi, kapitan Janabay Xapibov.

3-o‘rin – Zarafshon shahar IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi, kapitan Nizomjon Karimov.

«G‘alabaga bo‘lgan intilish» nominatsiyasi sovrindori:

Andijon shahri bo‘yicha IIOFMB 2-son IIB HPG profilaktika katta inspektori, kapitan Jaloldin Tursunov.



Ichki ishlar vazirligida «Eng yaxshi ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘ibotchisi» ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Uning to‘liq tafsiloti bilan gazetamizning navbatdagi sonida tanishasiz.





QADRING BALAND BO‘LSIN,

21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan respublikamizning barcha joylarida mushoiralar, uchrashuvlar, she’rxonlik kechalari tashkil etildi. Quyida joylarda o‘tkazilgan bayram tadbirlarining ayrimlaridan fotolavhalarni e’tiboringizga havola qilamiz.

FARG‘ONA VILOYATI



ONA TILIM!



TOSHKENT VILOYATI





IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hudud 13-son jazoni ijro etish koloniyasi xodimlaridan iborat ikki jamoa a’zolari ona tilimizni madh qiluvchi she’rlar, qo‘shiqlar ijro etishdi, o‘zaro savol-javoblar o‘tkazishdi. Shuningdek, xalqimizning purma’no maqollari yangradi. Tadbirda koloniya xodimlari, IIV Akademiyasi 2-o‘quv kursining bir guruh kursantlari ishtirok etishdi.

Nizomiddin FAXRIDDINOV,
mayor.

* * *

Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayot, yig‘ladi o‘lim.
Sen deb qurbon bo‘ldi bobolar,
Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Belanchaging uzra Koshg‘ariy
Kuylab o‘tdi qadim navoni,
Va navqiron yaproqlaringga
Dil qonini berdi Navoiy.

Samarqanddan Bobur ketarkan,
Dilda bo‘g‘ib hasrat sasini.
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim, birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so‘yilgan.
Hoziqningmas, sening, ey tilim,
Boshing ayru, ko‘zing o‘yilgan.

Ammo dushman o‘ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir
To‘ldirmoqqa yerni ovozga.

Vatan uchun baxsh etib jonni,
Kechib olov, kirib daryoga.
Farzandlaring to‘kkan har qonni
Shimirding sen o‘xshab giyohga.

Ona tilim, omon bo‘l mangu,
Sen borsan-ki, men ham o‘lmayman.
Tildan qolsam, seni Oybekday
Men ko‘zlarim bilan so‘ylayman.

Xurshid DAVRON,
O‘zbekiston xalq shoiri.

QASHQADARYO VILOYATI





IIV Qashqadaryo akademik litseyida o‘tkazilgan tadbir davomida so‘z olganlar til inson qalbining ko‘zgusi ekani, unda muayyan bir xalqning o‘tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlari aks etishini ta’kidlashdi.

Shuningdek, ona tilimizning rivojiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimiz Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy siymolari litsey o‘quvchilari tomonidan gavdalantirildi. Ona tilimiz madh etuvchi she’r va qo‘shiqlar ijro etildi.

O‘z muxbirimiz.

SURXONDARYO VILOYATI





IIV Surxondaryo akademik litseyida «Til – millat faxri» deb nomlangan davra suhbatida Termiz davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori N.Yo‘ldoshev hamda Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining Surxondaryo hududiy bo‘linmasi rahbari Sh.Sattorovning mulohazalari ham ko‘pchilikni befarq qoldirmadi.

O‘z muxbirimiz.

Хорезмская область

ОБЕСПЕЧИВАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ПАССАЖИРОВ

Благодаря бдительности сотрудников Управления по обеспечению безопасности на транспорте Хорезмской области и ответственному подходу к выполнению служебных обязанностей преступления раскрываются по горячим следам.

Так, 18 сентября текущего года некий Собир Р. был задержан сотрудниками оперативной группы при продаже 0,04 грамма героина за 800 000 сум у железнодорожного вокзала в Хиве.

– Сотрудники за прошедший период текущего года оформили административные протоколы в отношении 171 гражданина, совершившего разные правонарушения, – говорит начальник подразделения по обеспечению безопасности на станции «Хива» майор Музаффар Бобожонов. – Из этих случаев 128 связаны с пересечением железнодорожных путей в неустановленных местах, 4 случая касаются выброса отходов в запрещенных зонах, 39 – курение в неположенных местах. Кроме того, были задержаны 5 несовершеннолетних, бесцельно бродивших на участках несения службы. Они переданы родителям и опекунам на основании письменного обязательства.

Благодаря профилактическим мероприятиям, осуществляемым совместно с представителями широкой общественности, в текущем году удалось избежать несчастных случаев на железных дорогах. Для своевременного предотвращения преступлений и правонарушений, обеспечения надежной защиты имущества граждан установлены 95 камер видеонаблюдения. Также на железнодорожных пешеходных переходах с плотным заселением установлены предупреждающие знаки, сигнальные огни на неохраняемых железнодорожных переездах. В рамках проводимых профилактических мероприятий особое внимание уделяется обеспечению безопасности, раннему предупреждению правонарушений, предотвращению нанесения ущерба железнодорожным сооружениям.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.



ЁШЛАР – КЕЛАЖАК БУНЁДКОРИ



МАҚСАДЛИ ЙЎЛ ТОПАР

Ҳаётда эришиладиган ҳар қандай ютуқ кишининг меҳнатига боғлиқ. Қўйилган мақсад сари интилиб, машаққатдан чекинмаган кишининг атрофидагиларга намуна бўла оладиган ички ишлар органлари ходимлари жуда кўп. Улардан бири Музработ тумани ИИБ ҲПБ профилактика инспектори катта лейтенант Шоҳжаҳон Нуралиев.

Лавҳамиз қаҳрамони ИИВ Академиясини тамомлагач, илк хизмат фаолиятини 2022 йили Денов туманидаги «Истиқбол» маҳалласида профилактика инспекторлигидан бошлаган. Ҳозир Музработ туманидаги «Дарбанд» маҳалласи ҳудудида жиноятчиликни барвақт олдини олиш бўйича жонбозлик кўрсатмоқда.

Ҳудудда яшовчи 5310 нафар фуқаронинг тинч ва осойишта умр кечириши учун астойдил ҳаракат қилаётган профилактика инспекторининг саъй-ҳаракати билан бугун «Дарбанд» маҳалласи «яшил» тоифага киритилган.

Катта лейтенант Шоҳжаҳон Нуралиев бу йил профилактика инспекторлари ўртасида ўтказилган «Намунали профилактика инспектори» танловининг вилоят босқичида ғолибликни қўлга киритди.

– Танлов олдидан пухта тайёргарлик кўрдим. Соҳага оид адабиётлар, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни қайта-қайта ўқидим. Дунёқарашимни кенгайтириш мақсадида бадиий китоб мутолаасига киришдим. Ҳаракатларим зое кетмади, – дейди у.

Шоҳжаҳон детектив асарлардан тортиб, бадиий адабиётнинг олтин намуналарини ҳам ўқишни канда қилмайди. Шунданми, «Заковат», «Китобхон» танловларида доимо фаол. Бундан ташқари, ҳозирда турк тилини ҳам ўрганмоқда. Тил бўйича махсус сертификатни қўлга киритгач, Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академиясига ўқишга киришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

Изланиш ва ўқиш инсонни юксалтириб боради. Фақат вақтни тўғри тақсимлаб, имкон топилса бўлгани. Шоҳжаҳон бор имкониятлардан кераклича фойдалана олиш кўникмасига эга. Муҳими, уни ота-онаси, яқинлари ҳамиша қўллаб-қувватлайди. Қаҳрамонимиз бундан янада куч олади.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.
Сурхондарё вилояти.

Бухарская область



В районе Караулбазар прошел марафон «Новый вдох», целью которого были популяризация здорового образа жизни и привлечение общественности к спорту.

Участники марафона были разных возрастов и профессий, но всех объединил интерес к спорту. В ходе марафона каждый приз нашел своего участника.


Соб. корр.



BIZNING SUHBAT

«YURTDOSHLARIMNING QO‘LLOVI KUCHIMGA KUCH QO‘SHADI»

Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida zafar quchgan hamyurtlarimiz erishgan g‘alabalar barchamizga alohida faxr-iftixor baxsh etdi. Bugungi suhbatdoshimiz Toshkent shahar IIBB xodimi, mamlakatimiz Olimpiya delegatsiyasining bayroqdori hamda oltin medal sohibi, katta leytenant Abdumalik Xalokov.



«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi» va «O‘zbekiston iftixori» faxriy unvonlari sohibi Abdumalik Xalokov 2000-yil 9-aprelda Buxoro viloyatida tug‘ilgan. O‘smirlar o‘rtasidagi Olimpiada o‘yinlari, Osiyo chempionati, XIX Osiyo o‘yinlari g‘olibi. 2023-yili poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan Jahon chempionatining oltin medali sohibi. Parijda o‘tkazilgan yozgi Olimpiada chempioni.

– Olimpiada shohsupasining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishni so‘z bilan aytish oson. Havaskor boksning eng yuqori cho‘qqisiga chiqishning o‘zi bo‘lmaydi. Shundaymi?

– Olimpiadada qatnashish har bir sportchi uchun katta orzu, aslida. Shukrki, biz eng oliy maqsadimizga erishdik – nufuzli musobaqada g‘oliblar qatorida bo‘ldik. Buning ortida tinimsiz mehnat, mashg‘ulotlar, qancha hayajonli daqiqalar-u o‘ziga yarasha qiyinchiliklar yotibdi. Albatta, bunda murabbiylarimning, ayniqsa, Davron G‘afurovning bergan ko‘rsatmalari, ruhiy daldasi ham muhim o‘rin tutdi.

Eng muhimi, bizga barcha sharoitlar yaratib berildi. Hatto O‘zbekistondan olib borilgan oziq-ovqat mahsulotlarigacha muhayyo qilindi. Bundan tashqari, g‘alabamizni chin dildan istagan yurtdoshlarimiz, muxlislarning qo‘llab-quvvatlashi har bir jangimiz oldidan bizga ruhiy madad berdi.

– Sportdagi erishgan muvaffaqiyatlaringizda kimlarning hissasi katta bo‘lgan?

– Avvalo, otamning. U kishi bokschi bo‘lsa-da, kichkinaligimda mutaxassislar bilan maslahatlashib, avval gimnastika va akrobatikaga bergan. Chunki bu sport turlari bilan shug‘ullangan bolaning tanasi elastik bo‘lib, har qanday sport turiga moslashib keta oladi. Shu tariqa, 2–3 yilcha shug‘ullanib, keyin erkin kurash va biroz muddat dzyudoga qatnashganman. Yonimizdagi boks zalida otam ham shug‘ullanardi. Men u yerga kirib turardim. Shu-shu boksga mehrim tushgan va otamning undovi bilan boks mashg‘ulotlariga qatnay boshlaganman. Ilk saboqlarni otam, keyinroq ustozim Hamid Rahmatovdan oldim. Toshkentga kelgach esa, Davron akaning murabbiyligida shug‘ullanishni davom ettirdim.

– Olimpiadada esda qoladigan, qiziqarli voqealar ham ro‘y berdimi?

– Ha, shunday voqea bo‘ldi. Masalan, poytaxtimizda o‘tkazilgan Jahon chempionatida avstraliyalik raqibim Charli Seniorga qarshi ringga ko‘tarilganman. Men har bir g‘alabamni salto bilan nishonlashni odat tusiga kiritganman. Buni u bilardi. O‘shanda birin-ketin salto tashlaganmiz. Buni qarangki, Parijda, yarim finalda yana u menga raqib bo‘ldi va jangdan so‘ng birga salto tashlash taklifini bildirdi. Men rozi bo‘ldim. Ikkalamiz ring o‘rtasida shu ishni bir vaqtda amalga oshirdik. Muxlislar buni uzoq olqishlab turishdi. U bilan ringda raqib bo‘lsak-da, hayotda do‘stmiz.



– Abdumalik ringda «raqs tushadi», deyishadi. Jang paytida o‘ziga xos quvnoq harakatlar qilasiz.

– Bu menga Yaratgan tomonidan berilgan fe’l-atvor bo‘lsa kerak. Shuning uchun ham ustozlarim buni anglab, ushbu harakatlarimni muvaffaqiyat yo‘lida ishlatishim uchun to‘g‘ri yo‘nalish berishdi. Ringga ko‘tarilganimda umuman boshqa odamga aylanaman. Bu xatti-harakatlarni ataylab qilmayman, aksincha, zavqim jo‘shib o‘z-o‘zidan kelaveradi. O‘ylaymanki, bu holat yutuqlarimda alohida o‘rin tutmoqda.

– Olimpiadada to‘rt jangda ham 5:0 hisobida g‘alaba qozondingiz. Har bir raundda konsentratsiyani to‘liq ushlab turishning siri nimada?

– O‘tgan yil boshida Bolgariyada bo‘lib o‘tgan turnirda dastlabki janglarda g‘alaba qozonib, uchinchisida qozog‘istonlik raqibimga mag‘lub bo‘lganman. Xatoim – jahlim chiqsa, oldimga qo‘ygan vazifamni, murabbiyimning ko‘rsatmalarini bajara olmay qolaman. Shundan keyin ustozim Davron aka ruhiy holatim bilan jiddiy ishladi. Natijada keyingi barcha musobaqalarda birin-ketin g‘alabalar kela boshladi. O‘z navbatida, bu Parij Olimpiadasida ham qo‘l keldi. Raqiblarim juda kuchli edi. Ular nufuzli turnirga o‘z-o‘zidan kelib qolmagan. Dastlab shvesiyalik, keyin ispaniyalik, yarim finalda avstraliyalik va finalda qirg‘izistonlik Munarbek Seiitbek Uuluni mag‘lub etdim.

– O‘zbekistonlik murabbiy Akmal Hasanovning qirg‘izistonlik bokschiga sekundantlik qilishi va u bilan bo‘lgan jangingiz Olimpiada tarixiga alohida harflar bilan yozib qo‘yildi…



– Munarbek bilan oldindan tanishmiz. U bir necha bor O‘zbekistonga kelib, biz bilan birga shug‘ullangan. Bundan tashqari, u bilan avval ikki marta ringga chiqqanman, lekin qiyinchilik bilan g‘alaba qozonganman. Olimpiadada boshqa raqiblar uni mensimasdan ringga chiqdi. Munarbek noqulay raqib, o‘ziga xos taktikasi bor va barcha raqiblarining ustidan g‘alaba qozondi. Bunda, albatta, ustozimiz Akmal akaning ham hissasi katta.

Munarbekning murabbiyi olimpiadaga kelolmagani uchun ringga Akmal Hasanov unga sekundantlik qiladigan bo‘ldi. Finalda esa ikkimiz ro‘baru keldik. Akmal aka finalda unga sekundantlik qila olmasligi ma’lum edi. Biroq ustozimiz ikkimizga ham omad tiladi va hatto hurmat yuzasidan Munarbekka o‘zbek to‘ni va do‘ppisini sovg‘a qildi.

– Otangiz janglaringiz tahlilini qilib, maslahatlarini berib borishi tabiiy. Onangiz-chi, hamma ringdagi janglaringizni tomosha qiladimi?

– 2023-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan Jahon chempionatiga g‘alaba qozonib, birinchi otamning oldiga borib, yutug‘imni birga nishonladim. Onam esa hech bir jangimni tomosha qila olmaydi. Farzandiga birov qattiqroq gapirganida qalbi larzaga keladi-yu, kimdir unga jarohat yetkazib qo‘ysa, jim qarab o‘tira oladimi. Ringga chiqishimdan oldin televizor yo‘q xonaga kirib, meni duo qilib o‘tiradi. Mag‘lubiyatimni mendan-da og‘riqli qabul qilib, yutganimda xursand bo‘ladi.

– Abdumalik, kelgusidagi rejalaringiz bilan o‘rtoqlashsangiz.

– Kelgusida Osiyo o‘yinlari, Jahon chempionati va albatta yana Olimpiadada ishtirok etib, yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga harakat qilaman. Professional boks bo‘yicha ham shartnomalar taklif qilishyapti, lekin murabbiylarim bilan maslahatlashib, obdan o‘ylab, keyin bir to‘xtamga kelamiz.

Shu o‘rinda, biz – bokschilarning katta yutuqlarga erishishimiz uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan muhtaram Prezidentimizga, qolaversa, ota-onam, murabbiylarim, meni qo‘llab turgan yurtdoshlarimiz va Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildiraman. Ularning qo‘llovi kuchimga kuch qo‘shadi. Har bir jangimda hamkasblarim – ichki ishlar organlari xodimlari ham qalban, g‘oyibona qo‘llab-quvvatlab turganliklarini his qilib turaman. Ularni yaqinlashib kelayotgan kasb bayramimiz bilan chin dildan qutlayman.

– Mazmunli va qiziqarli suhbatingiz uchun tashakkur!

O‘z muxbirimiz Sarvar SOBIROV suhbatlashdi.

DIL IZHORI

POYINGIZ KO‘ZIMGA TO‘TIYO, ONAM!



Aslida har birimizning dilimizda onamizga atalgan minnatdorlik yoki sog‘inch bilan yo‘g‘rilgan samimiy so‘zlarimiz bo‘ladi. Lekin ba’zan bu izhorlarni aytishga fursat, ba’zida jur’at topa olmaymiz. Gohi esa aytishga chog‘langanimizda kech bo‘ladi...

Quyida Namangan viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi xodimi, katta serjant Oybek Sarimsoqovning onasi Malika Sarimsoqovaga atalgan dil izhorini e’tiboringizga havola etar ekanmiz, barcha onalarga farzandlaridan shunday e’tiroflar eshitish nasib qilsin, deymiz.

Onajon! Bugun sizga dilimdagi samimiy tilaklarimni izhor etishga jazm qildim. Chunki bu gaplarni yuzma-yuz ayta olmayman, nazarimda, hayajondan entikib ketaman...

Mehribonim! Bizni dunyoga keltirib, voyaga yetkazganingiz, beorom tunlaringiz haqi, sizni boshimizga ko‘tarsak, poyingizni ko‘zimizga to‘tiyo qilsak arziydi. Bugun baxtimning butunligi, ro‘zg‘orimning to‘kisligi ham siz va otam tufaylidir. Oilada besh o‘g‘il, bir qizmiz. O‘g‘il bola ko‘proq otaga, qizlar esa onaga yaqinroq bo‘ladi, deyishadi. Lekin o‘zimdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, o‘g‘il ham otasiga emas, onasiga ko‘proq erkalanadi, oilaviy masalalarda, ro‘zg‘or tashvishlarini hal qilishda ona bilan maslahatlashadi. Mening ham bu borada eng yaqin maslahatgo‘yim sizsiz, onajon!

Esingizdami, bolaligimdayoq harbiy xizmatga qiziqqanimdan menga biror kiyim xarid qilish kerak bo‘lsa, «Harbiylarnikiga o‘xshaganidan bo‘lsin», deb oyoq tirab turib olardim. «Men katta bo‘lsam, askar bo‘laman!» deb baralla aytardim.

O‘g‘il bolaning tarbiyasiga jiddiy qarash kerak, deb ota-onalar majlisiga ko‘pincha otamning o‘zi borardi. Lekin o‘g‘lim haqida muallim nima derkin deb ora-orada o‘zingiz ham borib turardingiz. Sizlarni uyaltirib qo‘ymaslik uchun ham yaxshi o‘qishga harakat qilardim.

Maktabni tamomlab, chekka hududda harbiy xizmatni o‘tadim. Xizmatdan qaytgach, hech ikkilanmasdan tuman IIVga hujjatlarimni topshirdim va xizmat faoliyatimni viloyat IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadida boshlab, mana, 14 yildan buyon shu jamoada samarali xizmat qilib kelmoqdaman.

Vazifamiz og‘ir, o‘ziga yarasha mashaqqatlari bor. Kutilmaganda birgina qo‘ng‘iroq sabab xizmatga shoshib ketib qolaman. Qaytganimda, xavotir aralash «Tinchmisan, bolam?», – deb so‘raysiz. Qisqa qilib «Ha, xavotir olmang» desam, «Mayli, tinch bo‘l, bolam», deb qo‘yasiz.

Kap-katta bo‘lsam ham, hali-hanuz ba’zan uyquga yotganimda, sekin kelib, boshimni silab, peshonamdan o‘pib qo‘yasiz. Shunda qalbingizdagi bitmas-tuganmas mehrni his qilaman. Naqadar yoqimli tuyg‘u bu...

Oilam, farzandlarim sizlar bilan. Shu bois ham ulardan ko‘nglim to‘q, xotirjam bo‘laman, ishimda esa unum bo‘ladi.

Yoshligimdan kelinlingiz sizga o‘xshasin-da, ona, deb niyat qilardim. Qarindosh-urug‘larimiz orasida ham: «Malikaxon mehnatdan qochmaydigan, juda chaqqon, sabrli ayol. Bizga ham unga o‘xshagan kelin uchrasin», deganlarini ko‘p eshitganman.

Umr yo‘ldosh tanlash borasida ham sizning maslahatingizga quloq tutib, kam bo‘lmadim. Oyxon – uch o‘g‘il va bir qizimning onasi! Unga doim «Onamning fazilatlarini ilg‘ab olgin, onamga o‘xshagin», deyishdan charchamayman.



Yaqinda viloyat IIB rahbariyati xodimlarga yangi xonadon uchun sertifikatlar topshirdi. Tadbirda siz ham qatnashdingiz. Sertifikatni qo‘lingizga topshirishganida quvonchdan ko‘zlaringizga yosh keldi. Prezidentimizga, IIV rahbariyatiga minnatdorlik bildirib, barchani ko‘pdan-ko‘p duo qildingiz.

Onajonim! Menga bergan mehr-muhabbatingiz, qilgan, qilayotgan g‘amxo‘rliklaringiz uchun tashakkur! Baxtimizga hamisha siz ham, otam ham sog‘-omon bo‘lib, yonimizda yuringlar! Men bugungi kamolim, baxtli oilam uchun sizlardan umrbod qarzdorman.

O‘z muxbirimiz
Adolat FAYZIYEVA yozib oldi.
Namangan viloyati.

TAHRIRIYATDAN: *katta serjant Oybek Sarimsoqov bilan suhbatlashish jarayonida onasi Malika aya uzoq yillar ta’lim tizimida faoliyat olib borganini, badiiy ijod bilan shug‘ullanishini, ayni paytda yozganlarini to‘plab kitob holida chop etish niyatidaligini bilib oldik. U farzandiga atab yozgan she’rida shunday satrlarni o‘qiysiz:*

Uyqum qochib, oyga qarayman,
Hammayoq tinch, musaffo osmon.
Duo qilib, shuni so‘rayman –
Qayda bo‘lsang, sog‘ bo‘l, bolajon!

Sen sergaksan – yurt osoyishta,
Qalbim bilan sezib turaman.
El tinchi deb uxlamaganlar
Tinchligini tilab yuraman.

MATONATLI ICHKI ISHLAR XODIMLARI



Tinchlik uchun oromidan har dam kechgay,
Yurt uchundir har tashlagan odimlari.
El tinch bo‘lsa, ko‘ngli ko‘kdan baland uchgay,
Matonatli ichki ishlar xodimlari.

Vatan yashnar doim sergak tursa sipoh,
Bu kun olam tinchin buzar qancha gumroh.
Mard yurtboshi istaganday hushyor, ogoh,
Sadoqatli ichki ishlar xodimlari.

Yigitlari Kubrolarning bardoshidur,
Ayollari To‘marisning izdoshidur.
Vatanimiz osmonin oy-quyoshidur,
Salobatli ichki ishlar xodimlari.

Madhi uchun yozilsa kam yuz ming doston,
Bog‘bonsiz hech bog‘ emas bu bog‘u bo‘ston.
Ular borki, tinch, osuda O‘zbekiston,
Saodatli ichki ishlar xodimlari.

Botir ERGASHEV,
shoir.

SALOMATLIK SABOQLARI

KO‘MSANGIZ – OZUQA, YOQSANGIZ – ZAHAR



Kuz faslida qurigan, sarg‘aygan barglar to‘kilib yer yuzini qoplaydi. Tabiat qonuni to‘kilish asosida yaproqlar daraxtlar poyiga tushib inson va tevarak borliq uchun zararsiz holatda bo‘ladi. Lekin biz tozalikka erishish maqsadida xazonlarni to‘plab, yoqishni boshlaymiz.

Vaholanki, qurigan barglar yoqilganda hosil bo‘ladigan tutundan minglab odamlar nafas olib, sog‘lig‘ini havf ostiga qo‘yadi. Bundan birinchi navbatda, insonning o‘pkasi zararlanadi. Zaharli moddalar qon orqali butun tanaga tarqab, buyrak, jigar, bosh miya va asab tizimiga katta zarar yetkazadi.



Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, 1 tonna xazon yonganda havoga 9 kg tutun zarrachalari ajraladi. Bu zarrachalar tarkibiga chang, azot oksidi, is gazi, og‘ir metallar hamda inson uchun eng havfli moddalardan dioksin va dioksan kiradi. Bu zaharli moddalar inson organizmiga tushgach, immun tizimini zararlaydi, gormon va vitaminlar faoliyatini izdan chiqaradi. Shuningdek, qurigan maysa va barglarni yoqish natijasida tuproq qatlamining foydali mikroorganizmlari – yomg‘ir chuvalchanglari, mayda hasharotlar nobud bo‘ladi.

Tajribali bog‘bonlar kuzda maxsus chuqurlar qazib, to‘kilgan barglarni shu chuqurlarga ko‘mib, ustidan tuproq tortishadi. Xazon chirindilari bilan boyigan tuproqda chuvalchanglar tez ko‘payadi, chirindi ular uchun ozuqa hisoblanadi. Bunda tuproqning organik tarkibi ham sifat jihatdan yaxshilanadi.

Bahorda chuqur usti ochilib, tayyor bo‘lgan chirindidan daraxtlarga o‘g‘it sifatida foydalaniladi. Ayniqsa, bu chirindi kamhosil yerlarni quvvatlash uchun katta yordam beradi. Chirigan barglar bilan boyitilgan yer yengil bo‘ladi va o‘simlik ildizlariga havo yaxshi yetib boradi.

Demak, xazonlarni chiqindi sifatida yoqib yubormasdan, undan foydali maqsadlarda ham foydalanish mumkinligini unutmang.

BILASIZMI?

* Germaniyada to‘kilgan barglardan xonadonlarni isitish uchun foydalanishadi. Biomeyler yoki kompost isitish tizimi orqali xazonlardan judayam ko‘p miqdordagi energiya ajratib olinadi. Bunday kompost bilan isitish manbalarida harorat hattoki 60 darajagacha chiqadi. Bu esa kompost yoqilg‘idan bemalol issiq suv yetkazib berishda ham foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

* Vena shahrida ekologik toza zavod joylashgan bo‘lib, unda qurigan shoxlar va yaproqlar qayta ishlanadi. Bu zavod havoni ham, atrof muhitni ham ifloslantirmaydi. Ko‘rinishi ertakdagi uychalarga o‘xshash bu joyning arxitekturasi kuchli dizaynerlar tomonidan ishlab chiqilgan. Zavod Vena shahridagi 170 mingta uyni issiqlik bilan ta’minlaydi.

* AQSHda esa hamma daraxtlar bargini to‘kib bo‘lgachgina xazon yig‘ib olinadi. Buni tejamli va oqilona yechim desak xato bo‘lmaydi. Bog‘lar va xiyobonlardagi xazonlar esa olinmaydi. Ular kelgusi yilda yer va o‘simliklar uchun tabiiy ozuqa vazifasini bajaradi.

* Riga shahrida esa odamlar oktabr oyining oxirlaridan boshlab to‘kilgan barglarni yig‘ib maxsus joylarga topshiradi. Ular buning uchun moddiy rag‘batlantiriladi.

YOMG‘IR YOG‘DI MAYDA-MAYDALAB...

Yomg‘ir – tabiat mo‘jizasi. Kimdir mayin yomg‘ir ostida mazza qilib, sayr qilishni istasa, yana kimdir tingunicha pana joyga oshiqadi.



Tabiiyki, bu tabiat hodisasining inson organizmi uchun foydali va zararli tomonlari ham bor.

FOYDASI

Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, inson qattiq hayajonda, talvasada bo‘lsa, nega unga darrov majburan suv ichirishadi yoki sepishadi? Va yana kinofilmlarda sevgi-muhabbatni ifodalash uchun aksar hollarda yomg‘irdan foydalanishadi.

Shifokorlar ta’kidlashicha, qo‘rquv, stress va qattiq hayajon vaqtida odam organizmida ajralib chiqadigan maxsus moddalar uning organlarini qaltirashga majbur qiladi. Insonning holatini yengillashtirish va titrog‘ini kamaytirish uchun unga ma’lum miqdorda suv kerak bo‘ladi.

Bundan kelib chiqadiki, kimdir yoqtirib, kimdir xushlamaydigan yomg‘irning-da inson sog‘lig‘iga ham yaxshigina ta’siri bor.

ZARARI

Yomg‘ir suvini ichish mumkinmi? Javob ikki xil:

1. Ha. Lekin darhol xom holida ichish tavsiya etilmaydi.

2. Yo‘q. Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, avtomashina sohiblari yomg‘irni unchalik xushlashmaydi. Chunki yomg‘irdan so‘ng, avtomashina endigina artib tozalangan bo‘lsa-da, uning ustida sanoqsiz kulrang dog‘chalar paydo bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, aslida musaffo ko‘rinadigan tomchilarda iqlim tufayli atmosferada hosil bo‘lgan zararli moddalar (sanoat korxonalaridan va boshqa sabablarga ko‘ra chiqadigan tutun va chiqindilar) tomchilar tarkibida ko‘plab miqdorda bo‘ladi. Uni ichish esa inson organizmi uchun o‘ta xavfli.

Sahifani Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.

QIZIQARLI MA’LUMOTLAR

Para shahrida odamlar yomg‘irga qarab soatlarini to‘g‘rilashadi, chunki u yerda yomg‘ir har kuni bir vaqtda yog‘adi.

* * *

Ogayo shtatining Uaynsburg shahrida esa yuz yillar mobaynida har yili 29-iyul kuni yomg‘ir yog‘adi.

* * *

Oddiy yomg‘ir kislotalik me’yoriga bog‘liq. Agar kislotalik darajasi juda pasayib ketsa, hasharotlar, qumursqalar va baliqlar nobud bo‘ladi.

* * *

Taxminan yuz milliondan bitta odamning yomg‘irga allergiyasi bo‘ladi. Unda har qanaqa suvning badanga tegishi qizarishga, shishishga olib keladi. Agarda bu toifa odamlar uzoq vaqt yomg‘ir ostida qolsa, vafot etishlari ham hech gap emas.

* * *

Eng og‘ir do‘l Gopalgandj shahrida 1986-yil 14-aprelda tushgan. Bir dona do‘lning og‘irligi bir kilogrammdan ortiq bo‘lgan. Bu yog‘ingarcilik tufayli 92 nafar inson vafot etgan.



ИИВ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши вазирлик Тиббиёт бошқармаси бошлиғи, подполковник Шуҳрат Нишоновга падари бузруквори

ЮСУФ отанинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Фарғона вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ҳамда Фахрийлар кенгаши Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси, ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги майор

Мирзаахмад СУЛАЙМОНОВнинг

вафот этганлиги муносабати билан оила аъзолари ва яқинларига таъзия изҳор қилади.

Қорақалпоғистон Республикаси ИИВ раҳбарияти, шахсий таркиби ҳамда Фахрийлар кенгаши «Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист», тарих фанлари номзоди, истеъфодаги подполковник

Наўризбай ТАЎМУРАТОВнинг

вафот этганлиги муносабати билан оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.

НАШИ ТАЛАНТЫ

«...Тополиный пух, жара, июль – ветер уносит в небо.
Только ты не веришь никому, – ждешь ты только
Снега, снега, снега».

Широко известная песня «Тополиный пух» была исполнена музыкальной группой Иванушки International в конце 90-х – начале 2000-х годов. Эта композиция стала одной из самых популярных и нашла отклик в сердцах многих поклонников.



Однако вряд ли кто-то мог представить, что однажды эту песню сможет спеть вместе с членами этой группы. Такая удача выпала выпускникам этого года военного академического лицея «Темурбеклар мактаби» в Нукусе – Бердаку Узакбергенову, Мурату Оразбаеву и Абдулазизу Еримбетову. Они приняли участие в вокальном проекте «Ты супер!», организованном российским телеканалом НТВ, и исполнили эту песню вместе с Кириллом Туриченко, участником музыкальной группы Иванушки International.

– В социальных сетях увидела новость о конкурсе, поэтому посоветовала ученикам попробовать поучаствовать в нем. Ребята активно выступали в культурно-массовых мероприятиях, хорошо пели, играли на гитаре, – говорит преподаватель русского языка и литературы лицея Ольга Утемуратова. – Пройдя отбор, получили приглашение. «Ты супер!» – это международный детский вокальный конкурс. В нем принимают участие воспитанники детских домов, школ-интернатов и дети из приемных семей. Талантливым ребятам в возрасте от 7 до 18 лет предоставляется возможность продемонстрировать свои вокальные способности профессиональному жюри и миллионам зрителей, поработать с лучшими музыкальными педагогами. Этот проект дает шанс заявить о себе тем, кто оказался без попечения родителей. Наши ученики участвовали в этом проекте представляя Республику Узбекистан. Мы гордимся достижением наших воспитанников.

В соответствии с условиями конкурса, на первом этапе кастинга каждому из троих претендентов необходимо было исполнить по две песни и отправить видеоролик, содержащий информацию о себе. Затем они успешно прошли индивидуальное собеседование и продемонстрировали свои вокальные данные. Таким образом они получили возможность принять участие в проекте.

– Нужно признать, что изначально мы не слишком верили в то, что нам удастся принять участие в таком конкурсе. Однако, успешно пройдя все испытания, проведенные в апреле-мае этого года, в июле мы приняли участие в восьмом сезоне проекта. Члены жюри, среди которых известный композитор Игорь Крутой и популярные исполнители Кирилл Туриченко, Ани Лорак и Люся Чеботина, положительно оценили наше выступление. Один из них отметил: «Вот какие таланты привозит нам Узбекистан», а другой с юмором добавил: «Это настоящие «Мурат International», ничуть не уступающие «Иванушкам International», – делятся участники конкурса. – К сожалению, нам немного не хватило везения, и, хотя мы не смогли пройти в следующий этап отбора, нас наградили дипломом за участие в конкурсе.

– В этом году мы поступили на юридический факультет Каракалпакского государственного университета имени Бердаха. В будущем планируем работать в области юриспруденции и служить своей родине. Также у нас есть определенные планы в творческой сфере, – говорит Бердак Узакбергенов.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.
Республика Каракалпакстан.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(28–oktabrdan 3–noyabrgacha)

Qo‘y. Haftaning birinchi yarmi ko‘chmas mulk yoki qimmatbaho buyumlar xarid qilish, turarjoy ko‘rinishini tartibga keltirish uchun maqbul davr. Shuningdek, bu hafta davomida iste’dod va salohiyatni, tashkilotchilik qobiliyatini yanada kuchliroq namoyon etish omad eshiklarini ochishi mumkin.

Buzoq. Shu kunlarda tushkunlikka berilgan, umidsizlangan yoki xasta insonlarning ta’sir kuchiga berilib qolmang. Bu jihat ruhiy holatingizga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Aksincha, siz ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, hayotga bo‘lgan qiziqishi va umidini orttirishga harakat qiling.

Egizaklar. Ushbu hafta hayotingizda o‘sish, rivojlanish, o‘z ustida ishlash va yangi ishlar boshlash uchun qulay davr. Ushbu hafta ish faoliyati bilan bog‘liq kelgusi harakat va rejalar uchun hal qiluvchi palladir. Biroq har qanday ko‘chib o‘tish va safar parvozlarini amalga oshirish tavsiya etilmaydi.

Qisqichbaqa. Ushbu hafta moliyaviy va oilaviy muammolarni hal qilish uchun juda qulay. Ilmli va faol insonlar bilan tanishish hamfikr va maslakdoshlarni topishga imkon yaratadi. Ortiqcha ishonchsizlikdan voz kecching, aks holda ajoyib imkoniyatlarni qo‘ldan boy berishingiz mumkin.

Arslon. Haftaning ikkinchi yarmi taqdiringizda ba’zi o‘zgarishlar yuz berishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu davrda barcha muhim ishlarni rejalashtirish muvaffaqiyat olib keladi. Oila a’zolaringizga ko‘proq vaqt ajratishga harakat qiling.

Parizod. Moliyaviy ahvolni yaxshilab olish uchun omadli davr. Foydali aloqalar sharofati bilan iste’dod va qobiliyatlarni namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilishi kutilmoqda. Dam olish kunlari atrofdagilar bilan til topishish, boshqalarning o‘y-fikrlarini tushunish va qabul qilish osonroq kechadi.

Tarozi. Bu hafta davomida har qanday qarorni mustaqil qabul qilishga, keraksiz va xalaqit qiluvchi buyumlardan qutulishga, atrofingizni o‘rab turgan muhitga yangi tus baxsh etishga intiling. Misol uchun, xonadonda yengil ta’mir tashkil qilish yoki narsalarning joyini almashtirish mumkin.

Chayon. Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ham ko‘tarinki bo‘lib, qo‘l urgan ishlaringiz baroridan keladi. Hozir oldingizda qanday tanlov turmasin, albatta, to‘g‘ri qaror qabul qilasiz, bunga ishoning.

O‘qotar. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ko‘tarinki bo‘lib, qo‘l urgan barcha ishlaringiz baroridan keladi. Bu hafta ham ishda, ham oilada o‘zingizni ko‘rsatish uchun yaxshi palla. Biroq bu jarayonda ortiqcha his-hayajonga berilmay, imkon qadar bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Yaqinlaringizdan o‘z ko‘mak va mehringizni zinhor ayamang.

Tog‘ echkisi. Daromadni oshirish oson emasligini, buning uchun o‘z ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etishini unutmang. Sizga xos bo‘lmagan sovuq munosabat yaqin kishilarning uzoqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Atrofdagilarga o‘z qoidalaringizni o‘tkazishga harakat qilmang. Bu harakatingiz munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qovg‘a. Ish joyingizda yangiliklar, ya’ni yangi lavozimga o‘tish, jamoa tarkibining o‘zgarishi, boshqa ishga o‘tish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Hafta omadli bo‘lib, vujudingizga qo‘shimcha kuch, ilhom, g‘ayrat quyilib keladi. Shu bilan birga yaqin insonlarning daldasini his etasiz.

Baliq. Oilaviy munosabatlarga putur yetmaslik uchun jahl va g‘azabga erk bermay, aql bilan ish yuriting. Yaqinlaringizning ko‘nglini og‘ritishdan imkon qadar yiroq turing. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo‘lgan ma’qul. Biron tanlov oldidan ko‘p karra yaxshilab o‘ylab ko‘rishni unutmang.

Bir qo‘shiq tarixi

«DO‘PPI TIKDIM, IPAKLARI TILLODAN...»

Inson umri poyonli, ammo ayrim dilga yaqin qo‘shiqlar hamon barhayot. Shu bois ham eski ohanglarni tinglaganda ko‘nglimizda yoqimli his-tuyg‘ular junbishga keladi, ko‘z o‘ngimizdan esa «Maftuningman» filmidagi o‘sha kadrlar bir-bir kinotasmadek o‘ta boshlaydi...



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Klara Jalilova «Saodat» jurnaliga bergan intervyusida film haqida eslab shunday degandi:

– Ijodim ayni gurkiragan davrda shoir Turob To‘la qo‘shiq va raqslarimdan ilhomlanib «Maftun bo‘ldim» she’rini yozgan. Bir tadbirda she’rni qo‘limga tutqazdi. O‘qib yuragim «jiz» etdi. Turob akaga: «Bu she’ringizni albatta, qo‘shiq qilaman», dedim. O‘sha yili «Maftuningman» filmi suratga olinadigan bo‘ldi. Rejissyor Yo‘ldosh A’zamov bosh rol uchun bo‘yi baland qizni tasavvur qilgan ekan.

Mening kichkina jussamni ko‘rib, kinoga olishga dastlab qarshilik ko‘rsatdi. «Bu qizning ovozini yozib olaman, lekin o‘zini emas. Bo‘yi past», deya bir necha bor sinovlardan qaytarib yuborgan. Filmdagi qo‘shiqlarning kuyini bastalagan Mutal Burhonov, Turob akalar rejissyorga: «Siz televizor ko‘rasizmi, axir, bu qiz eng mashhur xonandalardan biri-ku. Bo‘yi pastligini ro‘kach qilib, roldan chetlashtirsangiz, katta xato qilgan bo‘lasiz», deyishgan.

Ko‘p muhokamalardan so‘ng, oxiri mening nomzodimni ma’qullashgan. Qaddi-qomatim ekranda chiroyli ko‘rinishi uchun maxsus kiyimlar tikishgan, oyoqlarim ostiga esa qalingina taxtachalar qo‘yishgan. Issiq kunlarda qalin kiyimlarda qiynalsam ham obrazim rejissyor istaganidek chiqishi uchun barcha mashaqqatlarga chidaganman.

1958-yilda oq-qora kinotasmalarga olingan «Maftuningman» musiqiy kinokomediyasini tomoshabinlar katta qiziqish bilan kutib olishadi. Rus tilida ham qayta-qayta namoyish etiladi.

– 1980-yillar edi. Bir kuni Novosibirskdan xizmatdosh do‘stim Igor Vasilev Baxmalga keldi, – deb xotirlaydi uzoq yillar ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib, ayni paytda keksalik gashtini surayotgan iste’fodagi podpolkovnik Eryigit Toshmurodov. – Suhbat orasida «Sizlarga o‘zim yoqtirgan qo‘shiqni kuylab beraymi?» deb qoldi. Hammamiz «Yaxshi bo‘lardi, davra ham qizirdi», deb qo‘llab-quvvatladik. Shu payt Igor «Do‘ppi tikdim» qo‘shig‘ini boshidan oxirigacha shunaqangi mahorat bilan kuylab, barchani lol qoldirdi. Undan bu qo‘shiqni qayerda eshitganini so‘raganimda, «Maftuningman» filmida tinglab, yod olganini aytib bergandi. Ishonasizmi, o‘shanda o‘zbek milliy qo‘shig‘imizning yutug‘idan oddiy inson sifatida ko‘ksim faxr-iftixorga to‘lgandi.



Ma’lumot o‘rnida aytish joiz, 1957-yilda Klara Jalilova Moskvada bo‘lgan yoshlar va talabalarning Butunjahon festivalida O‘zbekiston delegatsiyasi nomidan ishtirok etadi. U yerda yosh xonanda muvaffaqiyatli chiqishlar qiladi va laureat nomini hamda o‘zining birinchi Oltin medalini qo‘lga kiritadi. Klara Jalilova «Do‘ppi tikdim» qo‘shig‘ini ijro etgan payti 18 yoshda bo‘lgan. U nafaqat o‘zbek, balki boshqa tillarda ham qo‘shiq kuylagan. Radioarxivda uning 130 dan ziyod qo‘shiqlari saqlanadi.

«Do‘ppi tikdim» qo‘shig‘ini estrada xonandalari, yosh ijrochilar ham o‘z talqinida ijro etgan, lekin baribir bu Klara Jalilovaning qo‘shig‘i bo‘lib qolaveradi. Quyida qo‘shiq matnini e’tiboringizga havola etamiz.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Do‘ppi tikdim, ipaklari tillodan,
Ipaklari demang, zari tillodan.
Jilo bersam gullariga,
Jilo bersam gullariga,
Ko‘zing olur bezaklari tillodan,
Ko‘zing olur bezaklari tillodan.
Guli lola, Guli lola.

Ko‘zing otashiga olma uni, Lola!
Ko‘zing otashiga olma uni, Lola!
Dil-u joni bilan nola qilur Lola!
Dil-u jon ila kuyla, go‘zal Lola!
Guli lola, Guli lola.
Dil-u joni bilan nola qilur Lola!
Dil-u jon ila kuyla, go‘zal Lola!

Dili pora yigit, yor-a yigit,
Kuyla, dilim sanda!
Yana kuyla baland, oromijon,
Ochsa dilim zora!

Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotib –
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Adolat FAYZIYEVA

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi. Shaxsiy h/v 47001086026287703110117900l STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma № 3530.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 45809 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.